

ISSN: 2181-1040
DOI: 10.26739/2181-1040
tadqiqot.uz/renaissance



JCAR

**JOURNAL OF CENTRAL
ASIAN RENAISSANCE**



**VOLUME 5 |
ISSUE 3**

2024

МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕССАНСИ ЖУРНАЛИ

ЖИЛД 5, СОН 3

ЖУРНАЛ РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ
ТОМ 5, НОМЕР 3

JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE
VOLUME 5, ISSUE 3



Бош муҳаррир:

МАДАЕВА ШАҲНОЗА ОМОНУЛЛАЕВНА

фалсафа фанлари доктори, профессор
Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:

ЮСУПОВА ДИЛДОРА ДИЛШАТОВНА

фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент Мирзо
Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:

ХОЖИЕВ ТУНИС НУРКОСИМОВИЧ

фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD),
Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети

МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕСАНСИ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ВА ИЖТИМОИЙ-ФАЛСАФИЙ ЖУРНАЛИ ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ

МАДЖИДОВ ИНОМ УРУШЕВИЧ

Ўзбекистон Миллий университети ректори,
профессор (Ўзбекистон)

ҲАКИМОВ АКБАР АБДУЛЛАЕВИЧ

Ўзбекистон Фанлар академияси, Ўзбекистон Бадий
академияси академиги, санъатшунослик фанлари
доктори, профессор (Ўзбекистон)

МАРИАННА КАМП РУТЦ

Индиана университети ЕвроОсиё тадқиқотлари
маркази профессори, тарих фанлари доктори (АҚШ)

ЖЎРАЕВ НАРЗУЛЛА ҚОСИМОВИЧ

ISFT professori, siyosiy fanlar doktori (O'zbekiston)

МАХМУДОВА ГУЛИ ТИЛАБОВНА

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
қошидаги "Фалсафа" илмий марказ раҳбари,
фалсафа фанлари доктори, профессор (Ўзбекистон)

ИСЛОМОВ ЗОҲИДЖОН МАҲМУДОВИЧ

Ўзбекистон Халқаро ислом академияси илмий
ва инновация ишлари бўйича проректори,
филология фанлари доктори, профессор (Ўзбекистон)

КЛЭР РООСИЕН

Йел университети Славян тиллари ва адабиётлари
кафедраси PhD доктори (АҚШ)

АНТонио АЛОНСО МАРКОС

Сан Пабло номидаги CEU университети
профессори (Испания)

ШИРИНОВА РАИМА ҲАКИМОВНА

Мирзо Улуғбек номидаги
Ўзбекистон Миллий университети
халқаро ишлар бўйича проректори,
филология фанлари доктори,
профессор (Ўзбекистон)

КАРИМОВ ЭЛЁР ЭРИКОВИЧ

Хофстра университети профессори,
тарих фанлари доктори (АҚШ)

ГАБИТОВ ТУРСУН ҲАФИЗОВИЧ

Ал Форобий номидаги Қозоғистон Миллий университети
профессори, фалсафа фанлари доктори (Қозоғистон)

ЮЛДАШЕВА ФАРИДА ХЎЖАМҚУЛОВНА

Анджон давлат университети "Фалсафа" кафедраси
муdiri, фалсафа фанлари доктори, профессор. (Ўзбекистон)

МИРЗАХМЕДОВ АБДИРАШИД МАМАСИДИКОВИЧ

Наманган муҳандислик-технология институти профессор,
фалсафа фанлари доктори (Ўзбекистон)

САФАРОВА НИГОРА ОЛИМОВНА

Навоий давлат педагогика институти
фалсафа фанлари доктори, профессор (Ўзбекистон)

ИНАКОВ КОМИЛЖОН ҚОДИРЖОНОВИЧ

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий
университети доценти, педагогика фанлари бўйича
фалсафа доктори (PhD) (Ўзбекистон)

ТОШОВ ХУРШИД ИЛХОМОВИЧ

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
доценти, фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
(Ўзбекистон)

ДЖЎРАЕВА НИГОРА АВАЗОВНА

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
доц.в.б., фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
(Ўзбекистон)

МИРЗАХМЕДОВ ХУРШИД АБДИРАШИДОВИЧ

Наманган давлат университети доценти, социология
фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) (Ўзбекистон)

ШУКУРОВ АКМАЛ ШАРОФОВИЧ

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
(Ўзбекистон)

РЎЗИБОВЕВ ДОСТОНБЕК ДИЛМУРОД ЎҒЛИ

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
PhD докторанти (Ўзбекистон)

Дизайн-саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

КОНТАКТ РЕДАКЦИЙ ЖУРНАЛОВ. WWW.TADQIQOT.UZ

ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

EDITORIAL STAFF OF THE JOURNALS OF WWW.TADQIQOT.UZ

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Главный редактор:

МАДАЕВА ШАХНОЗА АМАНУЛЛАЕВНА

доктор философских наук, профессор
Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека

Заместитель главного редактора:

ЮСУПОВА ДИЛЬДОРА ДИЛЬШАТОВНА

доктор философии (PhD), по философским наукам, доцент
Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека

Заместитель главного редактора:

ХОДЖИЕВ ТУНИС НУРКОСИМОВИЧ

доктор философских наук (PhD), Национальный
университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека

ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКОГО И СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКОГО ЖУРНАЛА РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

МАДЖИДОВ ИНОМ УРУШЕВИЧ

Ректор Национального университета Узбекистана,
профессор (Узбекистан)

ХАКИМОВ АКБАР АБДУЛЛАЕВИЧ

Академия наук Узбекистана,
академик Академии художеств Узбекистана,
доктор искусствоведения, профессор (Узбекистан)

МАРИАННА КАМП РУТЦ

профессор Центра Евразийских исследований
Университета Индианы, доктор исторических наук (США)

ДЖУРАЕВ НАРЗУЛЛА КАСИМОВИЧ

Профессор ISFT института,
доктор политических наук (Узбекистан)

МАХМУДОВА ГУЛИ ТИЛАБОВНА

руководитель Научного центра «Философия» при
Национальном Университете Узбекистана имени Мирзо
Улугбека, доктор философских наук, профессор (Узбекистан)

ИСЛОМОВ ЗОХИДЖОН МАХМУДОВИЧ

проректор по научным исследованиям и инновациям
Международной исламской академии Узбекистана,
доктор филологических наук, профессор (Узбекистан)

КЛЭР РООСИЕН

PhD доктор кафедры
Славянских языков и литературы
Йельского университета (США)

АНТонио АЛОНСО МАРКОС

профессор Университета
CEU имени Сан Пабло (Испания)

ШИРИНОВА РАИМА ХАКИМОВНА

проректор по международным связям
Национального Университета Узбекистана
имени Мирзо Улугбека, доктор филологических наук,
профессор (Узбекистан)

КАРИМОВ ЭЛЁР ЭРИКОВИЧ

профессор Университета Хофстра,
доктор исторических наук (США)

ГАБИТОВ ТУРСУН ХАФИЗОВИЧ

профессор кафедры религиоведения и культурологии
Казахского Национального Университета имени Аль-Фараби,
доктор философских наук (Казахстан)

ЮЛДАШЕВА ФАРИДА ХОДЖАМКУЛОВНА

заведующая кафедрой «Философия» Андижанского
государственного университета, кандидат
философских наук, профессор. (Узбекистан)

МИРЗАХМЕДОВ АБДИРАШИД МАМАСИДИКОВИЧ

профессор Наманганского инженерно-технологического
института, доктор философских наук (Узбекистан)

САФАРОВА НИГОРА ОЛИМОВНА

Навоийского государственного педагогического института,
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)

ИНАКОВ КАМИЛЖОН КАДЫРЖАНОВИЧ

доцент Национального Университета Узбекистана
имени Мирзо Улугбека, доктор философии (PhD)
по педагогическим наукам (Узбекистан)

ТОШОВ ХУРШИД ИЛХОМОВИЧ

доцент Национального Университета Узбекистана
имени Мирзо Улугбека, доктор философии
по философским наукам (PhD) (Узбекистан)

ДЖУРАЕВА НИГОРА АВАЗОВНА

и.о. доцент Национального Университета Узбекистана
имени Мирзо Улугбека, доктор философии
по философским наукам (PhD) (Узбекистан)

МИРЗАХМЕДОВ ХУРШИД АБДИРАШИДОВИЧ

доцент Наманганского государственного университета, доктора
философии (PhD) по социологическим наукам (Узбекистан)

ШУКУРОВ АКМАЛ ШАРОФОВИЧ

Национального Университета Узбекистана имени Мирзо
Улугбека, доктор философии по философским наукам (PhD)
(Узбекистан)

РЎЗИБОВЕВ ДОСТОНБЕК ДИЛМУРОД ЎҒЛИ

докторант кафедры Философии и логики Национального
Университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека (Узбекистан)

Дизайн-верстка: Хуршид Мирзахмедов

КОНТАКТ РЕДАКЦИЙ ЖУРНАЛОВ. WWW.TADQIQOT.UZ

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

EDITORIAL STAFF OF THE JOURNALS OF WWW.TADQIQOT.UZ

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Chief Editor:

MADAEVA SHAKHNOZA AMANULLAEVNA

Doctor of Philosophical Sciences (DSc), Professor
The National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

Deputy Chief Editor:

YUSUPOVA DILDORA DILSHATOVNA

Doctor of Philosophy (PhD), in Philosophical Sciences,
Docent of National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

Deputy Chief Editor:

KHODZHIEV TUNIS NURKOSIMOVICH

Doctor of Philosophy (PhD), National University
of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD OF THE SCIENTIFIC-THEORETICAL AND SOCIO-PHILOSOPHICAL JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE

MADJIDOV INOM URUSHEVICH

Rector NUUZ, Professor (Uzbekistan)

KHAKIMOV AKBAR ABDULLAEVICH

Academy of Sciences of Uzbekistan,
Academician of the Academy of
Arts of Uzbekistan, Doctor of
Art History, Professor (Uzbekistan)

MARIANNE KAMP RUTZ

Professor of the Center for Eurasian Studies
at Indiana University, Doctor of History (USA)

DJURAEV NARZULLA KASIMOVICH

Professor of the ISFT Institute,
Doctor of Political Sciences (Uzbekistan).

MAKHMUDOVA GULI TILABOVNA

Head of the Scientific Center "Philosophy"
at the National University of Uzbekistan
named after Mirzo Ulugbek, Doctor of
Philosophical Sciences, Professor (Uzbekistan)

ISLAMOV ZOHIDJON MAKHMUDOVICH

Vice-Rector for Research and Innovation of the
International Islamic Academy of Uzbekistan,
Doctor of Philological Sciences, Professor (Uzbekistan)

CLAIRE ROOSIEN

Department of Slavic Languages and Literature
of the Yale University, PhD (USA)

ANTONIO ALONSO MARCOS

Professor of the University of CEU
named after San Pablo (Spain)

SHIRINOVA RAIMA KHAKIMOVNA

Vice-Rector for International Affairs of the National
University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek,
Doctor of Philological Sciences, Professor (Uzbekistan)

KARIMOV ELYOR ERIKOVICH

Professor of the Hofstra University,
Doctor of Historical Sciences (USA)

GABITOV TURSUN KHAFIZOVICH

Professor of the Al-Farabi Kazakh National University,
Doctor of Philosophical Sciences (Kazakhstan)

YULDASHEVA FARIDA KHOJAMKULOVNA

the head of the "Philosophy" department of Andijan
State University, DCs, professor. (Uzbekistan)

MIRZAKHMEDOV ABDIRASHID MAMASIDIKOVICH

Professor of the Namangan Institute of Engineering
and Technology, Doctor of Philosophical Sciences (Uzbekistan)

SAFAROVA NIGORA OLIMOVNA

the Nava'i State Pedagogical Institute, Doctor
of Philosophical Sciences, Professor (Uzbekistan)

INAKOV KOMILJON KODIRJONOVICH

Associate Professor of the National University
of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek,
Doctor of Philosophy (PhD) (Uzbekistan)

TOSHOV KHURSHID ILKHOMOVICH

Associate Professor of the National University
of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek,
Doctor of Philosophy (PhD) (Uzbekistan)

JURAEVA NIGORA AVAZOVNA

Associate Professor of the National University
of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, (PhD) (Uzbekistan)

MIRZAKHMEDOV KHURSHID ABDIRASHIDOVICH

Associate Professor of Namangan State University,
Doctor of Philosophy (PhD) on
Sociological Sciences (Uzbekistan)

SHUKUROV AKMAL SHAROFVICH

The National University of Uzbekistan named
after Mirzo Ulugbek, PhD (Uzbekistan)

RO'ZIBOEV DOSTONBEK DILMUROD O'G'LI

doctoral student of the National University of Uzbekistan
named after Mirzo Ulugbek, (Uzbekistan)

Design-pagemaker: Khurshid Mirzakhmedov

КОНТАКТ РЕДАКЦИЙ ЖУРНАЛОВ. WWW.TADQIQOT.UZ

ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

EDITORIAL STAFF OF THE JOURNALS OF WWW.TADQIQOT.UZ

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Hamid Sulaymon, Erkinov Aftondil Sadirxonovich NAVOIY ASARLARINING MANBA'LARI VA NASHRI HAQIDA.....	7
2. Yusupova Dildora Dilshatovna ISLOM MODERNIZMINING TARIXIY-FALSAFIY TAHLILI.....	27
3. Djurayev Avaz Ahmedjanovich, Zakirov Shakir Mamajanovich AJDODLAR DONOLIGI: ZAMONAVIY DUNYODA KONFUTSIY MEROSI.....	35
4. Lalixon Muxamedjanova GLOBALLASHUV JARAYONIDA ZAMONAVIY AXLOQIY MUAMMOLARNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	43
5. Ro'ziboyev Dostonbek Dilmurod o'g'li XX ASRNING IKKINCHI YARMIDAGI G'ARB ORIENTALIZMI INQIROZINING FALSAFIY TAHLILI.....	49
6. Xudjaqulova Feruza Raxmatovna JAMIYATNING MAFKURAVIY HAYOTI, UNING TARKIBIY TUZILISHI VA NAMOYON BO'LISH XUSUSIYATLARI.....	58
7. Berdimuratova Lazzat Duysenovna QIZILQUM HUDUDIDAGI GIDRONIMLAR VA ANTROPOGIDRONIMLARNING ETIMOLOGIK TAHLILI.....	66
8. Normo'minova Nasiba Dilshod qizi BASHORAT TUSHUNCHASINING FALSAFIY TALQINI.....	76
9. Kobilova Makhfuza Sherali kizi ANALYSIS OF LEXICAL-SYNTACTIC AND SYNTACTIC STYLISTIC MEANS OF LANGUAGE.....	83

ISSN: 2181-1040

www.tadqiqot.uz

МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕССАНСИ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ


JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE**Hamid Sulaymon**

Maqolani nashrga tayyorlovchi:

Erkinov Aftondil Sadirxonovich,

filologiya fanlari doktori,

O'zbekiston xalqaro Islom akademiyasi

E-mail: aftandilerkinov@gmail.com**NAVOIY ASARLARINING MANBA'LARI VA NASHRI HAQIDA** <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.14679593>**ANNOTATSIYA**

Maqola taniqli matnshunos olim Hamid Sulaymonov (1910–1979) tomonidan 1963 yilda Alisher Navoiy (1441–1501) asarlari o'n besh tomliqi nashrining kirish qismi sifatida yozilgan. Unda asosiy e'tibor Navoiy asarlarining maqola yozilgan vaqtgacha aniqlangan manbalari va nashrlari masalalariga qaratilgan. Maqolada Alisher Navoiy asarlari va qo'lyozma manbalarining topilishi, aniqlanishi, nomi ma'lum yoki hali qo'lyozmalari topilmagan asarlariga oid ma'lumotlar keltirilgan, shoir asarlarining nashrlari qisqacha tahlil qilingan. Shuningdek, Navoiy asarlarining qo'lyozma manbalari va ularning qaysi kutubxona va fondlarda saqlanishi masalasiga e'tibor qaratilgan. Maqola navoiyshunoslik fanining shakllanishi va bunda shoir asarlari manbalarining o'rnini ko'rsatish nuqtai nazaridan ahamiyatlidir.

Kalit so'zlar: Hamid Sulaymonov, manba, qo'lyozma, fond, tekst, kutubxona, tekstologiya, navoiyshunoslik, Navoiy asarlari manbashunosligi va matnshunosligi.

Hamid Sulaiman

The article was prepared for publication by:

Erkinov Aftondil Sadirkhanovich

Doctor of Philological Sciences

International Islamic Academy of Uzbekistan

E-mail: aftandilerkinov@gmail.com**ABOUT SOURCES AND EDITIONS OF NAVAI'S WORKS****ABSTRACT**

The article was written by the renowned textual scholar Hamid Sulaymonov (1910-1979) in 1963 as an introduction to the fifteen-volume edition of Alisher Navoi's (1441-1501) works. The main focus is placed on the sources and publications of Navoi's works that had been identified up to the time the article was written. The article presents information on the discovery and identification of Alisher Navoi's works and manuscript sources, including details about works whose titles are known but whose manuscripts have not yet been found. It also provides a brief analysis of the publications of the poet's compositions. Additionally, attention is given to the manuscript sources of Navoi's works

and the matter of their preservation in various libraries and collections. The article is significant from the perspective of illustrating the formation of Navoi studies as a discipline and highlighting the role of the poet's original sources in this process.

Key words: Hamid Sulaymonov, source, manuscript, collection, text, library, textology, Navoi studies, source studies and textual analysis of Navoi's works.

Хамид Сулейман

Статью подготовил для публикации:

Эркинов Афтондил Садирханович,

доктор филологических наук.

Международная исламская академия Узбекистана

E-mail: aftandilerkinov@gmail.com

ОБ ИСТОЧНИКАХ И ИЗДАНИЯХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ НАВОИ

АННОТАЦИЯ

Данная статья принадлежит перу известного учёного-текстолога Хамида Сулейманова (1910–1979) и представляет собой исследовательское введение к пятнадцатитомному собранию сочинений Алишера Навои (1441–1501), датируемое 1963 годом. Основное внимание в тексте уделяется анализу рукописных источников и изданий произведений Навои, что были известны ко времени написания статьи. Автор приводит сведения об истории обнаружения и идентификации рукописных списков произведений Навои, о сочинениях, чьи названия известны, однако рукописи которых пока не были установлены, а также даёт краткий анализ ряда осуществлённых изданий трудов поэта. Кроме того, Х. Сулейманов говорит об особенностях рукописных списков произведений Навои и тех библиотеках и фондах, которые ими располагают. Иллюстрируя ключевую значимость рукописных источников произведений за авторством поэта для навоиведения, представленная статья имеет непреходящее значение в становлении научного знания о Навои и его интеллектуальном наследии.

Ключевые слова: Хамид Сулейманов, источник, рукопись, фонд, текст, библиотека, текстология, навоиведение, источниковедение и текстология произведений Навои.

Kirish va mavzuning dolzarbligi. Hamid Sulaymonov (1910-1979) – taniqli matnshunos, Navoiy “Xazoyin ul-maoniy”si tarkibiga kirgan to‘rt devon ilmiy-tanqidiy matni nashrini amalga oshirgan olim. U 1961 yili “Alisher Navoiy lirikasining tekstologik tadqiqi” (“Текстологическое исследование лирики Алишер Навои”) mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Mazkur dissertatsiya, davr talabidan kelib chiqqan bo‘lsa kerak, rus tilida yozilgan. Dissertatsiya o‘zbek tiliga tarjima qilinmagan va rus tilidagi variant asosida ham kitob holda chop etilmagan. Hamid Sulaymonovning ilmiy faoliyati bo‘yicha ba’zi tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ammo olimning matnshunoslik bo‘yicha bir qator nashrlaridan hozirgi kitobxonlar yetarlicha xabardor emas. Bunga sabablardan biri ularning ancha yillar avval chop etilganligidir. Shu bois H.Sulaymonovning “Navoiy asarlarining manbalari va nashri haqida” maqolasini qayta nashr etishni lozim deb topdik. Mazkur maqola birinchi marotaba nashr etilgan Alisher Navoiy asarlarining o‘n besh tomligiga kirish qismi sifatida yozilgan. Unda shoir asarlari qo‘lyozma manbalari va nashrlari tahlil qilingan. Maqola SSSR davrida yozilgani uchun unda o‘sha davr mafkurasiga xos fikr va so‘zlar uchraydi. Zero, ular zamonasozlik mahsuli sifatida qaralishi mumkin. Biz olim maqolasi matnini asl holda keltirmoqdamiz. Tushunarliroq bo‘lishi uchun ba’zi so‘zlar hozirgi shakliga almashtirildi. Yaxlit olganda, H.Sulaymonov maqolasi 1960-yillar navoiyshunosligi tarixi va Navoiy asarlari matnshunosligining dolzarb masalalari qanday bo‘lganini tadqiq etishga yordam berishi mumkin. Maqola va ushbu kirish so‘zi navoiyshunos olim, filologiya fanlari doktori A.S. Erkinov tomonidan tayyorlangan bo‘lib, quyida Xamid Sulaymonov qalamiga mansub maqola birinchi bo‘lib Markaziy Osiyo Renessansi jurnalida chop etilmoqda.

...

O‘zbek adabiyoti va adabiy tilining asoschisi Alisher Navoiy o‘zining o‘lmas asarlari bilan jahon klassiklari qatorida turadi. Besh asr davomida o‘zbek va boshqa turkiy xalqlar adabiyoti vakillari Navoiy merosidan tarbiya topdi va ulg‘aydi. Xalqimiz yaratgan ma‘naviy madaniyat boyliklaridan biri hisoblangan Navoiy merosi bundan so‘ng ham kelajak avlod uchun porloq gumanizm g‘oyalari chashmasi, yuksak nafosat manbai va so‘z san‘atining buyuk mahorat maktabi bo‘lib qoladi. Shuning uchun ham O‘zbekiston Fanlar Akademiyasining Til va adabiyot instituti tomonidan Navoiy asarlarining tanlangan va qisman qisqartirilgan o‘n besh tomlik nashrini tayyorlab, xalqimizga taqdim etilishi davrimiz talabidan kelib chiqqan qonuniy va faxrli tashabbusdir.

Gorkiy V. I. Leninga yozgan bir maktubida: “Men sizdan iltimos qilaman, Vorovskiyga telefon qilsangiz va unga tayinlasangizki, rus klassiklarining qisqartirilgan nashrlari, albatta, Davlat nashriyoti bosib chiqargan to‘liq nashrlar tekstiga aynan mos bo‘lishi kerak” [2, T.29] degan edi. Gorkiyning bu qimmatli fikri Navoiy tekstlarini o‘rganishga ham taalluqlidir. Navoiy asarlarining ommaviy nashri qanday hajmda bo‘lishidan qat‘i nazar hamma vaqt eng qadimiy va mo‘tabar qo‘lyozmalar asosida tuzilgan tanqidiy tekstlarga mos bo‘lishi lozim. Shuning uchun ham Navoiy asarlarining ko‘p tomlik nashrini tayyorlashdan avval olimlarimiz ancha yillardan beri shoirning qo‘lyozma merosini to‘plash va ular ustida ma‘lum tekstologik tadqiqotlar olib borish bilan shug‘ullanib keldilar. Bu sohada navoiyshunoslikning so‘nggi 20 yil ichida qo‘lga kiritgan yutuq va tajribalari ulug‘ shoir merosining ko‘p tomlik qilib yaratilishi uchun katta zamin bo‘ldi. Muhtaram kitobxonlarga taqdim etilayotgan ushbu Navoiy asarlari majmuasi uzoq yillardan beri shoir merosini o‘rganishda erishilgan tajribalarga suyangan holda, shoir asarlarining kelajakda akademik nashrini yaratish yo‘lidagi navoiyshunos olimlarimizning birinchi tajribasidir.

Hozirgi vaqtda navoiyshunoslik oldida turgan va dastavval hal qilinishi lozim bo‘lgan vazifalardan biri shoir asarlarining haqiqiy (kanonik) va mukammal tekstini tuzib, xalqqa va fanga tezroq taqdim etishdir. Chunki shoir asarlarining xatolardan soqit qilingan ishonchli va mukammal nusxasiga ega bo‘lmay turib, uning dunyoqarashi, badiiy mahorati va til xususiyatlari ustida jiddiy muhokama yuritish, nazariy xulosalar chiqarish mushkuldir.

Qadim zamonlarning barcha mutafakkir olim va shogirdlarining meroslari singari Alisher Navoiyning asarlari ham bizgacha qo‘lyozmalar holida yetib kelgan. Navoiy merosini nashrga tayyorlashda yagona va asosiy manba shoir asarlarining qadimiy qo‘lyozma nusxalaridir.

Modomiki, shunday ekan, har bir kitobxonda darhol savol tug‘iladi- Navoiyning o‘z qo‘li bilan yozilgan noyob mualliflik dastxatlari saqlanganmi, yo‘qmi? Javob bitta – yo‘q! Navoiy qo‘lyozmalarini o‘rganish va ularni poleografik xususiyatlarini tekshirish sohasida olimlarning uzoq yillik tajribalari shuni ko‘rsatadiki, shoir avtograflari o‘z zamonasidayoq xalokatga yuz tutgan bo‘lishi kerak. Endi ularning topilishi ehtimoldan uzoqdir.

Buni shunday izohlash mumkin: Navoiy yarim asr davomida qalam tebratdi, turli mavzularda juda ko‘p asarlar yaratdi. Mantiq shuni ko‘rsatadiki, shoir yaratgan har bir g‘azal, har bir bayt, har bir prozaik parcha originali qog‘oz parchalariga muallif qo‘li bilan oddiy xatda, yagona nusxada bo‘lib, bu asarlarga keyinchalik turli kuzatish va o‘zgartirishlar kiritilganligi tabiiydir. Bu xilda qora qilingan qog‘oz parchalarini besh yuz yil davomida saqlanib, bizgacha yetib kelishiga aql bovar qilmaydi (O‘zSSR Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida 304 inventar nomerli qo‘lyozma bor. Bu qo‘lyozma Abdurahmon Jomiy va Xo‘ja Ahrorning qo‘li bilan Alisher Navoiy nomiga yozilgan 300 dan ortiq maktublar to‘plamidan iborat. Navoiy tashabbusi bilan yig‘ilib kitob holiga keltirilgan bu qo‘lyozma shuni ko‘rsatadiki, shoir avtograflari ham xat uslubi, qog‘ozi, siyohi va boshqa paleografik xususiyatlari bilan Jomiy va Xo‘ja Ahror avtograflari ruhida bo‘lishi haqiqatga yaqindir).

Navoiy asarlarini avtor originalidan eng oliy nav qog‘ozlariga xusnixat bilan ko‘chirib kitobat qilish bilan Xirotning mashhur san‘atkor xattotlari Sulton Ali Mashhadiy, Abdujamil, Darvesh Muhammad Toqiy, Muhammad binni Nur, Sulton Muhammad Xandon (Navoiy asarlari tekstlari va variantlarining o‘rganilishida mashhur san‘atkor-kalligraf 15 asr Xirotning atoqli madaniyat arboblari bilan bo‘lgan Sulton Ali ibn Muhammmad Mashhadiy tomonidan ko‘chirilgan. Navoiy devonlari beshta va “Xamsa” ning ikki unikal nusxasi (Leningrad, GPB, Vost. № 560 va Turkiya,

Topqopi, Revan niv. №810) alohida va muhim ahamiyat kasb etadi. Bu ajoyib xattotga Navoiy shunday qit'a bag'ishlagan edi:

Qiblatul-kuttobkim, derlar ani Sulton Ali
Kim, qazo qilki masalliq xomasi yozmas g'alat.
Qaysi qit'amniki yozdi, bordi andin she'rlik,
El solurlar juzvdong'akim, erur bir qit'a xat

Sulton Ali Navoiydan yoshi ancha ulug' bo'lib, shoir vafotidan 12 yil keyin, 1513 yilda 84 yoshida vafot etdi. Sulton Ali ko'chirgan bir qancha nushalar Xirot badiiy xattotlik maktabining noyob namunalari hisoblanadi. Xattotning ijodi haqida dissertatsiya yozgan G.I.Kostigova xabar berishicha, jahon qo'lyozma fondlari va shaxsiy koleksiyalarda xattot ko'chirgan 50dan ortiqroq qo'lyozma bor.

Tarixiy manbalardan ma'lum bo'lishicha, Navoiyning shaxsiy kotibi bo'lgan xattot Abdujamil "Xamsa"ning Toshkentdagi unikal nusxasini, (O'zSSRFA Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, inv. № 5018) shoir yozib bitkazganidan keyin ko'p vaqt o'tmay ko'chirib tugallagan; Navoiy lirik fragmentlaridan "Tuhfat ul-salotin" nomli to'plam tuzgan. (London, Britaniya Muzeyi, inv. № 401).

Yuqoridagi mashhur xattotlardan tashqari, Sulton Alining eng iste'dodli shogirdlari va Navoiy asarlari ko'chirishda faol qatnashganlar: Muhammad binni Nur "Badoe' ul-bidoya"ning Boku nusxasini (inv.№ 3010), Leningraddagi terma devonini (inv. 563); Darvesh Muhammad Toqiy Turkiyadagi Navoiyning mashhur kulliyotini 910-1504/05 yilda (Topkapi, Revan kutubxonasi №808) va Hijron degan xattot 930-939-1523/26 yillarda, Fransuz Milliy Kutubxonasida saqlanayotgan boy illustratsiyali va ziynatli, unikal kulliyotini ko'chirgan) va genial rassom Kamoliddin Behzod rahbarligidagi miniatyura san'ati va kitobat grafikasi ijodchilari shug'ullanganlar. O'z-o'zidan ravshanki, muttasil ijod va ilm-ma'rifat bilan band, hamisha xalq ustida qayg'urgan, bir lahza davlat ishidan bo'sh bo'lmagan Navoiydek ulug' zotning ba'zilarini taxmin qilganidek, o'z asarlarini oqqa ko'chirib, kitob shakliga keltirishga zaruriyati ham ortiqcha vaqti ham bo'lmagan.

Fikrimizcha, Navoiy o'z asarlarini yaratishi bilanoq, ularning eng yuksak badiiy mahorat bilan ko'chirilgan ziynatli nusxalariga ega bo'lgani uchun, shoir avtograflari e'tibordan chetda qolib, bor-bora yo'qolib ketgan bo'lishi mumkin. Ehtimol, har bir devon yoki doston Abduljamil va Sulton Ali Mashhadiy kabi xattotlar tomonidan ko'chirilib, Navoiyning o'ziga manzur bo'lgach, "keraksiz nusxa" sifatida tashlab yuborilgan. Bordiyu bir necha ming parcha varaqlardan iborat bo'lgan Navoiy dastxatlari o'z zamonasida shoir arxivi sifatida saqlanib qo'yilgan bo'lsa ham bu avtograflar shoir asarlarining mo'tabar nusxalari tobora ko'paya borishi bilan shoir vafotidan so'ng tez vaqt ichida, amaliy ahamiyati bo'lmagani uchun, yo'qolib ketgan bo'lishi ham ehtimoldan uzoq emas.

Agar biror vaqt, biror joyda shoir avtograflari topilib qolsa, bu avtograflar tugal devon yoki doston qo'lyozmasi bo'lmay, alohida poetik lavhalar, davlat xujjatlari, maktublar yoki alohida rivoyatlarga chekilgan shoir imzosigina bo'lishi mumkin.

Modomiki shunday ekan, Alisher Navoiy merosini to'plash, tizimga solish va o'rganishda biz uchun birdan-bir asosiy manba shoir asarlarining o'zi hayot ekani chog'ida turli kotiblar tomonidan ko'chirilgan va avtorning o'z nazoratidan o'tgan XV asr Hirot nushalaridir. Ayni zamonda, bir qator muhim masalalarni yoritishda, so'nggi davr nusxalari ham ko'pincha foydadan xoli bo'lmaydi. Navoiy qo'lyozma merosini izlash va o'rganish tajribali shoir asarlarining qo'lyozmalari butun dunyoga tarqalganligini ko'rsatadi. Xondamirning xabar berishicha, XV asrda Navoiy asarlarining juda ko'p nusxalari Hindiston, Yaqin Sharq va Arab mamlakatlariga savdo ahli va madaniyat arboblari tomonidan olib ketilgan.

Agar Navoiy hayot chog'ida uning asarlari Xuroson, O'rta Osiyo, Ozarbayjon, Eron, Sharqiy Turkiston, Xindiston, Misr va Turkiyaga borib yetgan bo'lsa, Navoiydan keyingi besh asr davomida ularning olamshumullik doirasi shu darajada kengaydiki, bizning zamonamizda uning qo'lyozmalarini Osiyo va Yevropaning yuzlab kutubxonalarida, hatto Amerika fondlarida uchratish mumkin (Navoiy asarlarining Yevropaga kirib borganlaridan bizga ma'lum eng qadimiysi 1625 yilga oid. Shu yili Angliyaning Oksford universitetiga shoirning bir terma devoni olingan) [3, inv. № 283]. Navoiy qo'lyozma merosini to'plash va o'rganish maqsadida, mazkur maqola avtori 1957-1958

yillarda Sovet Ittifoqning Sharq qo‘lyozmalari mavjud bo‘lgan shaharlarini (Leningrad, Dushanbe, Boku, Yerevan, Tbilisi, Olmata, Ashxobod, Frunze, Buxoro, Samarqand, Xiva, Farg‘ona va boshqalar) kezeb barcha akademiya va universitet fondlari, ilmiy muassasalar hamda shaxsiy kutubxonalarda Toshkent fondlari qo‘shilib shoir qo‘lyozmalarining 1200 dan ortiqrog‘ini hisobga olib chiqdi. 1946 yilda S.L.Volin Leningrad fondlaridagi Navoiy qo‘lyozmalariga tasvir berganida 11 xorijiy fond (London, Oksford, Kembrij, Berlin, Myunxen, Parij, Rim, Upsala, Nyu-York, Filadelfiya, Rim-Vatikan) nashr qilingan 15 ta Sharq qo‘lyozmalari kataloglaridan chet el kutubxonalaridagi Navoiy qo‘lyozmalariga tasvir berilganini ko‘rsatgan edi [4, – S. 217.]. S.L.Volin ro‘yxati biz tomonimizdan yana beshta fond (Anqara, Tehron, O‘rumchi, Pekin, Qobil, Dublin) yettita katalogi bilan to‘ldirildi (Agah Sirri Levend, Turkiye kitapliklaridagi Nevai yazmalari, Ankara, Türk tarih kurumu basimevi, 1958; the Chester Beatty Library. A catalogue of the Turkish manuscripts and miniatures by V. Minorsky, Dublin, 1958; Ethe, Y. Catalogue of the Persian, Turkish, Hindustani and Pushtu manuscripts in the Bodlejan Library, y, I, Oxford, 1889; A. U. Pope, Calligraphy and epigraphy (A. Survey of Persian Art, v. 2, London – New-York, 1939, p. 1717-1742); ابن يوسف شیرازی فهرست کتاب خانه مدرسه عالی سپهسالار جلد دوم کتب ختی فارسی ترکی در چاپخانه مجلس تهران ۱۳۱۸

عللنقی منزوی تهرانی فهرست کتابخانه اهداتی آقاء سیّد حمد مشکوه به کتابخانه دانیسگاه تهران جلد دوم کتابدابی چاپخانه دانشگاه تهران

۱۳۳۲

فهرست کتابخانه آستانه قدّس صوی جلد دوم مشهد چاپخانه طوص ۱۳۴۵

اویفور کلاسسیک نهدیباتی قول یاز میلیر بینک کاتالوگی شنخانک یهرلیک موزیفا تهییار لیق کوروش داشقارماسی (۱۲۵۸ یل مای). Natijada to‘plangan ma‘lumotlarga ko‘ra, sovet fondlari, kataloglar e‘lon qilgan chet el kutubxonalarini va bir qancha shaxsiy kutubxonalaridan Alisher Navoiyning turli asrlarda ko‘chirilgan qo‘lyozma asarlaridan hozircha 2000dan ortiqrog‘i bizga ma‘lum bo‘ldi.

XIX asr o‘rtalaridan boshlab O‘rta Osiyoda (Xiva, Qo‘qon, Toshkent) toshbosma paydo bo‘lishi bilan boshqa kitoblar qatorida, Navoiy asarlari ham ko‘p nusxada nashr qilina boshlandi. Navoiyning shoh asarlari hisoblangan “Xazoyin ul-maoniy” bilan “Xamsa” birinchi marotaba Xivada shoir Feruz (Muhammad Rahim II) tashabbusi bilan chop etiladi (“Xamsa”, 1880, “Xazoyinul-maoniy” esa 1881 yilda chop etilgan. Har ikkala asar kotibi Muhammad Yusuf binni Berdimurod so‘fi Xorazmiy.). “Xamsa”ning ikki nusxasi esa, XX asr boshida Toshkentda nashr etildi (Har ikkala nusxa Toshkentda 1901, 1905 yili O.A.Porsev litografiyasida bosilgan. Birinchisining kotibi Shohmurod kotib, ikkinchisining esa Mannop qori.). Shoirning toshbosmada nashr qilingan asarlari ichida eng ko‘pi “Xazoyin ul-maoniy” she‘rlaridan tuzilgan turli hajm va tartibdagi kompelyativ devonlardir. Toshbosmada chop etilgan Navoiy asarlaridan alohida ilmiy ahamiyatga ega bo‘lgan mo‘tabar kitob 1917 yili Qo‘qonda nashr qilingan “Muhokamatul-lug‘otayn”dir. Bu asarning bironta ham qulyozma nusxasi sovet kutubxonalarida yo‘q va uning uchtagina qo‘lyozmasi Fransiya va Turkiya kutubxonalarida mavjud bo‘lganidan “Muhokamatul-lug‘otayn”ning Qo‘qon litografiyasi tekstologiya uchun ham o‘z qimmatini yuqotgan emas.

XIX asr o‘rtasidan boshlab toshbosma bilan bir qatorda Navoiyning ba‘zi asarlari yoki ulardan alohida parchalar Yevropa, Rossiya va Turkiyada, XX asrning birinchi choragida esa O‘rta Osiyo va Ozarbayjonda arab grafikasidagi mix bosmada ham qisman nashr etilgan (Parijda sharqshunos M.Katrimir 1841 yilda “Muhokamatul-lug‘atayn” bilan “Tarixi muluki Ajam” va “Tarixi anbiyo”ni nashr ettirgan. Bokuda 1926 yili “Munshaot” bilan “Vaqfiya” bosilgan va boshqalar.).

Ulug‘ Navoiy yaratgan ulkan merosga chinakam ilmiy asosda yondashish, shoir yaratgan har bir misrani zo‘r muhabbat, qunt bilan o‘rganish va uning asosiy adabiy merosini turli tillarda qayta-qayta nashr ettirib, keng kitobxon ommasiga yoyishga faqat sovet davridagina erishildi.

Dunyoning turli kutubxonalarida asrlar davomida xazina boyligi sifatida saqlanayotgan Navoiy asarlari endilikda o‘n minglab nusxada nashr etilib, SSSR xalqlari tillari va ajnabiy tillarga tarjima qilinishi bilan haqiqiy xalq mulkiga aylantirilmogda bu ishda sovet Navoiyshunoslari, olim va shoirlarining xizmatlari alohida taqdirga sazovordir. Asosan sovet nashrlari tufayligina Navoiy merosi uning yuksak va ilg‘or g‘oyalari, buyuk san‘ati bizning kommunistik madaniyatimiz

xazinasiga kelib qo‘shildi, uni boyitdi. Navoiy merosi jahon klassiklari asarlari qatorida xalqimizning yuksak ma’naviy va estetik tarbiyasi uchun xizmat qilmoqda.

Alisher Navoiy asarlarining har xil tipdagi sovet nashrlari ichida eng e’tiborlisi maxsus tekstologik tadqiqotlar yordamida tuzilgan ilmiy-tanqidiy tekstlardir. Barcha tekstologik olimlar Navoiy asarlarining ilmiy – tanqidiy tekstlarini tuzishda imkon boricha eng qadimiy qo‘lyozmalardan foydalanishga harakat qilmoqdalar.

Ayniqsa, devonlar bilan “Xamsa” tekstini tuzishda matnshunoslar Navoiyning o‘zi hayot ekan chog‘ida ko‘chirilgan, bir necha eng mo‘tabar Xirof nuxsalaridan asosiy manba sifatida foydalandilar. Shoir yaratgan barcha asarlarning tanqidiy tekstini tuzish tugaganidan keyingina Navoiy asarlarining mukammal ilmiy sharh va turli ko‘rsatkichlar bilan ta’minlangan to‘liq akademik nashrini arab grafikasida bosib chiqarish mumkin. Mukammal akademik nashrning maydonga kelishi kuch va uzoq vaqtni talab qiladigan ish bo‘lgani uchun asosan qo‘lyozma manba’lardan va e’lon qilingan ilmiy tanqidiy tekstlardan foydalangan holda, shoir merosining davr talabiga javob beradigan turli ommaviy nashrlarni muntazam bosib chiqarish maqsadga muvofiqdir. Muhtaram kitobxonlarga taqdim etilayotgan bu o‘n besh tomlik ham shu ommaviy nashrlar tipida bo‘lib, o‘zidan avvalgi barcha nashrlardan, Navoiy asarlarining ko‘pchiligini o‘z ichiga olishi, asarlarni tomlarga ma’lum prinsiplar asosida joylashtirilishi, nihoyat, tekstlarning puxtaligi farqlanadi.

Navoiyshunoslikda hozirgacha kam o‘rganilgan va aniqlik kiritishni talab qiladigan eng muhim masalalari biri – genial san’atkor ulug‘ mutafakkir va olim Alisher Navoiy yaratgan barcha poetik, ilmiy va memuar asarlarining umumiy soni, avtor qo‘ygan nomi, har bir asarning ijod etilish tarixi va hajmini aniqlashdir. Bu masalalarni hal qilmay turib, shoir asarlarining o‘n besh tomligini tuzishga kirishish mumkin bo‘lmas edi.

Asarlarning nomlari va umumiy ro‘yxatini dastlab Navoiyning o‘zi “Muhokamatul-lug‘atayn”da bergan. Keyinchalik bu ma’lumot qadimgi manba’lardan, G‘iyosiddin Xondamirning “Makorimul-ahloq” asarida, “Abushqa” lug‘atida va qo‘lyozma yodgorliklarda takrorlanadi. Bular bilan bir qatorda Navoiy asarlari va ularning yaratilish tarixini aniqlashda eng eski qo‘lyozma nuxsalar birinchi manba’ sifatida hal qiluvchi ahamiyatga molikdir.

Endi ana shu manba’lar bilan tanishaylik, Navoiy “Muhokamatul-lug‘atayn”da avval XV asarining ro‘yxatini beradi: 1. “G‘aroyibus-sig‘ar”, 2. “Navodirush-shabob”, 3. “Badoe‘ul-vasat”, 4. “Favoyidul-kibar”, 5. “Hayratul-abror”, 6. “Farhod va Shirin”, 7. “Layli va Majnun”, 8. “Sab‘ai sayyor” (Navoiyning “Muhokamatul-lug‘atayn”dagi “Yana ko‘nglum “Sab‘ai sayyora” rasadini bog‘lab, Ashraf “Haft paykar”idan yetti hur yuzlikni xuzuring‘a taqdim etibdur” degan fikri asosida mazkur dostonning nomini “Sab‘ai sayyora” deb atadik. (H.S.)), 9. “Saddi Iskandariy”, 10. “Zubdatut-tavorix” (“Tarixi muluki Ajam” va “Tarixi anbiyo va hukamo”), 11. “Nasoyimul-muhabbat”, 12. “Lisonut-tayr”, 13. “Nazmul-javohir”, 14. “Mezonul-avzon”, 15. “Devoni Foni”, (Yana “Devoni Foni tarkibiga kirgan oltita forsiy qasidalarini alohida ko‘rsatib o‘tgan: 1. “Ruhul-quds”, 2. “Aynul hayot”, 3. “Tuhfatul-afkor”, 4. “Quvvatul-qulub”, 5. “Minhojin-nojat” (Bu qasida “Devoni Foni” debochasida “Tuhfatul-najot” deb nomlangan. (Parij, Fransuz Milliy kutubxonasi, inv. №285, varaq 26.)), 6. “Nasimul-xuld”).

Bu olti qasida to‘plamiga shoir “Devoni Foni” debochasida “Sittan zaruriya” deb ot qo‘ygan. “Muhokamatul-lug‘atayn”da Navoiy yilning to‘rt fasli haqida “Fusuli arbaa” nomli fors tilida yana bir qasida yaratganini gapiradi. Afsuski, bu qasida hozircha ma’lum emas, bizga ma’lum qo‘lyozmalarda uchramadi. Bulardan tashqari, “Xazoyin ul-maoniy”ga qadar o‘zining o‘zbekcha she’rlaridan ikkita devon tartib etganligini, bulardan birinchisi “Badoe‘ul-bidoya”, ikkinchi esa, “Navodirun-nihoya” ekanini eslatib o‘tgan. Shunday qilib, Navoiyning o‘zi “Muhokamatul-lug‘atayn” va debochalarida forsiy qasidalari qo‘shilib 24 asarning nomini ko‘rsatgan [5, – B. IX.]. Ammo shoir nima uchundir bizga ma’lum bo‘lgan 10 asarning (1. “Majolisun-nafois”, 2. “Mahbubul-qulub”, 3. “Risolai muammo”, 4. “Xamsatul-mutahayyirin”, 5. “Xoloti Sayid Hasan Ardasher”, 6. “Holoti Pahlavon Muhammad”, 7. “Munshaot”, 8. “Vaqfiya”, 9. “Chihl hadis”, 10. “Sirojul-muslimin”) nomini “Muhokamatul-lug‘atayn”da ko‘rsatmagan.

G‘iyosiddin Xondamirning “Makorimul-ahloq”da Navoiy asarlaridan yigirmatasini ko‘rsatish bilan cheklangan (“Xamsa”ning besh dostoni, “Xazoyinul-maoniy”ning to‘rt devoni, 10. “Mezonul-

avzon”, 11. “Chihl hadis”, 12. “Risolai muammo”, 13. “Majolisun-nafois”, 14. “Tarixi anbiyo va hukamo”, 15. “Tarixi mulku Ajam”, 16. “Xamsatul-mutahayyirin”, 17. “Munshaot”, 18. “Holoti Amir Sayid Xasan Ardasher”, 19. “Holoti Pahlavon Muhammad”, 20. “Mahbubul-qulub”) [6, – B. 34-40].

XVI asrda Navoiy asarlari uchun tuzilgan “Abushqa” lugʻatining avtori “Makorimul ahloq”dagidan koʻra shoir asarlarining mukammalroq ruyxatini beradi. “Abushqa” avtori ruyxatida shoir asarlarining soni yigirma toʻqqizga borgan. “Abushqa” avtori asarlar ruyxatini shoir kulliyotning eng moʻtabar qoʻlyozmasidan olganini aytadi. Bu ruyxatda, yuqoridagi ikki manbaʼda uchramagan, Navoiyning forsiy munshaotlari (maktublar toʻplami), “Munojotnoma” ham “Soqiynoma” asarlari koʻrsatilgan [7]. Biroq, shuni eslatmoq zarurki, “Soqiynoma” Navoiyning oʻzi tomonidan “Favoyidul-kibar” devoni tarkibiga kiritilgan 458 baytdan iborat asar boʻlib, “Munojotnoma” esa Navoiy kulliyoti uchun yozilgan, ikki betdan iborat muqaddimadir. Ammo Navoiyning forsiy munshaotlari hozirgacha topilgan aniq emas, lekin bu asar “Abushqa” avtori foydalangan kulliyotda boʻlgan.

Biz tanishgan XV-XVI asr manbaʼlarida Navoiy asarlari ruyxatidagi noaniqlik va baʼzi xatolar bugungi ilmiy adabiyotda ham uchraydi. Olim Sharafutdinov oʻzining “Alisher Navoiy” kitobida Navoiyning yigirmata asarini koʻrsatgan [8]. S.L.Volin Leningrad fondlaridagi Navoiy qoʻlyozmalari asosida, shoirning 26 asarini roʻyxatga olgan (Volin roʻyxatiga Leningradga boʻlmagan “Devoni Foni” bilan “Risolai muammo” kirmagan) [9, – C. 205.]. Bundan tashqari Volin, Navoiy toʻrtta oʻzbekcha devonidan bir terma devon tuzib, otini “Mahzanul-maoniy” deb atagan, deydi. Volinning bu fikri notoʻgʻri boʻlib chiqdi, chunki hech qanday qoʻlyozma manbalar fikrni tasdiqlamadi. Ammo shu kamchiliklarga qaramay, Navoiy asarlari ruyxati, muallif redaksiyasi va yaratilish tarixini aniqlashda Volinning xizmati alohida taqdirga sazovordir. Keyinchalik prof. Ye. E. Bertels [10, – C. 269-270], Abdurahmon Saʼdiy [13, – C. 69-70] va turkiyalik navoiyshunos Ogah Sirri Levend [12, – S. 127-145.] Volin roʻyxatidan foydalanganlar, baʼzan Volin yoʻl qoʻygan xatolarni mexanik ravishda takrorlaganlar.

Masalan, prof. Bertels oʻz roʻyxatida Volinga suyanib, Navoiyning “Chor devon”idan boshqa “Xazoyin ul-maoniy” nomli devoni ham bor, degan notoʻgʻri maʼlumot bergan. “Sirojil-muslimin”ni Ye.E.Bertels oʻz roʻyxatiga “Pandnoma” deb kiritgan. Ogah Sirri Levend esa, oʻz roʻyxatida “Tarixi anbiyo”ni tushirib qoldirgan. Prof. Abdurahmon Saʼdiy “Abushqa” xatolarini takrorlab, Navoiy “Soqiynoma”sini “Favoyidul-kibar”dan ajratgan holda alohida asar qilib bergan va boshqalar.

Bulardan tashqari turli asl qoʻlyozma manbaʼlarida baʼzi risola va tarixiy asarlar Navoiyga nisbatan beriladi. Shulardan biri prof. V.Y.Zohidov kutubxonasida saqlanayotgan 1087-1676/77 yilda koʻchirilgan kulliyot tarkibidagi “Risolai tirandoziy” nomli asardir. Bu asarning ikkinchi nusxasi biror sovet va chet el kutubxonalarida uchramadi. Loqaq mazkur asar nomi yuqorida zikr etilgan shoir asarlarining roʻyxatida ham tilga olinmagan. Faqat bir Ye.E. Bertels bu asarni Toshkentda koʻrgani uchun oʻz roʻyxati oxiriga qoʻshgan.

Ogah Sirri Levend va prof. Hamid Araslining maʼlumotlariga qaraganda, Navoiy tomonidan tuzilgan “Sabʼatu abhur” nomli katta bir arabcha-oʻzbekcha lugʻat qoʻlyozmasi Misr qulyozma fondida saqlanar ekan (Levend, Nevainin Arapça Sözlüğü, Türk dili araştırmaları yilligi Belleten, 1959. Shu lugʻat haqida 1960 yildagi Navoiyga bagʻishlangan sessiyada prof. Hamid Arasli ham doklad qilgan edi.). Bu masala hozircha kam tekshirilgan, bundan soʻng alohida oʻrganishni talab qiladi. Lekin adabiyot tarixi, lingvistika va poetikaga oid “Majolisun-nafois”, “Muhokamatul-lugʻatayn”, “Mezonul-avzon” va “Risolai muammo” kabi ilmiy filologik asarlar yaratgan olim va shoirning leksikografiya sohasida ham oʻz faoliyatini koʻrsatib, arabcha-oʻzbekcha lugʻat tuzishi haqiqatga yaqindir.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida keltirilgan manbalar va ilmiy asarlarning barchasi qimmatli faktik materiallarga ega boʻlishiga qaramay, Navoiy asarlarining mukammal roʻyxatini bermagan. Yana shunga eʼtibor etish kerakki, mavjud roʻyxatlarda xronologiyaga ham, janrga ham va mazmunga ham rioya qilinmagani holda, turlicha, har kitobda har xil tuzilgan. Faqat Volingina oʻz roʻyxatini birinchi boʻlib xronologik tartibda tuzgan.

Navoiy asarlarining umumiy soni, nomi va xronologiyasini aniqlashda, yuqorida koʻrsatilgan manbaʼlardan koʻra ham biz yuqorida koʻrsatgan shoir merosining eng qadimiy moʻtabar qoʻlyozma

nusxalari favqulodda ahamiyatga molikdir. Biz “Muhokamatul-lug‘atayn”, “Makorimul-axloq” va “Abushqa”dan foydalanib, ayni vaqtda shoirning eng qadimiy qo‘lyozmalariga tayanib, Navoiy asarlarining ruyxati va janrlar tasnifini tuzib chiqdik.

Biz tuzgan ro‘yxatda Navoiyning qulyozmalarda mavjud bo‘lgan, ham nusxasi bo‘lmasdan, tarixiy manba‘larda faqat nomi saqlanib qolgan asarlar ro‘yxati mukammal berildi. Shoirning ko‘pchilik asarlari qo‘lyozma yodgorliklarda va ilmiy iste‘molda har xil nom bilan atalishi kabi ahvolga chek qo‘yish uchun har bir asarga avtorning o‘zi qo‘ygan nom (bu nomlar Navoiy asarlarining xotimalaridan ko‘chirildi). Navoiy merosi haqidagi ma‘lumotning mukammalligini ta‘minlash maqsadida har bir asarning umumiy hajmi berildi. Devonlar va “Xamsa” dostonlari xajmi haqidagi ma‘lumot “Xazoyin ul-maoniy” va “Xamsa” nashrida e‘lon qilingan tekstologik tadqiqotlardan (Hamid Sulaymon, “Xazoyinul-maoniy” tekstarini o‘rganish va nashrga tayyorlashning asosiy masalalari (Navoiy, “Xazoyinul-maoniy” t. 1. Toshkent, O‘zSSR FA nashriyoti, 1958. Bet XXVI); P.Shamsiev, nashr haqida Navoiy, “Xamsa”, Toshkent, O‘zSSR FA nashriyoti, 1960, bet 9.), “Devon Foni” baytlari soni qo‘limizda mavjud bo‘lgan ikki Parij qo‘lyozmalarining fotonusxalaridan chiqarildi (Navoiy, “Devoni Foni”, Parij, Fransuz Milliy Kutubxonasi, inv. № 285, 1345.

* Shartli qisqartmalar: ML – “Muhokamatul-lug‘atayn”, MA – “Makorimul-axloq”, AB – “Abushqa” lug‘ati, KL. 808 – Turkiya, Sulaymoniya kutubxonasi, inv. №4056. Asarlarining yaratilish va kitobat tarixi hijriy (h.) ham milodiy (m.) yillar hisobida beriladi.). She‘riyat baytlar hisobida ko‘rsatildi, prozaik asarlar hajmi esa Ogah Sirri Levend tasvirlagan eng qadimiy kulliyotning (Turkiya, Topkapi, Revan kutubxonasi, inv № 808. Kulliyotning har betida 27 satr bo‘lib, satrlar uzunligi 16,8 santimetrdir) satrlari hisobida berildi.

Navoiy asarlarining aniqlangan ro‘yxati:

1. Badoe‘ul-bidoya (“Boshlang‘ich ijodlar”)

بدايع البدايه

“... har sinf she‘r va zeb va tazyin va oroyish va oyin bergonimning kayfiyatni burungi devonim fehrastidakim, “Badoe‘ul-bidoya”ga mavsumdur...” (“Xazoyinul-maoniy” debochasidan)

Tarkibi: debocha, boshi, Fasohat devonining g‘azal saroylari...I.G‘azallar 772, II. Mustazodlar 2, III. Muxammaslar 4, IV. Musaddaslar 3, V. Tarje‘band 3, VI. Qit‘alar 49, VII. Ruboiylar 64, VIII. Chistonlar 10, IX. Muammolar 52, X. Tuyuqlar 10, XI. Fardlar 52. She‘rlarning umumiy soni 1022. Kitobat tarixi: h. 870-885-m. 1465/66-1480/81 yillar o‘rtasida. Bu devon she‘rlari keyinchalik shoir tomonidan “Xazoyinul-maoniy” tarkibiga kiritilgan. (ML, MA, AB, KL, 808, KL. 4056 larda yo‘q.)*

2. Navodirun-nihoya (“Eng nodir she‘rlar”)

نودر النهايه

“...ul xayol shabistonning duraxshon axtarlarin va ul ko‘ngul gulshanning duraxshon gavharlarin dog‘i ikkinchi davonimdakim, “navodirun-nihoya”ga mashhurdur...” (“Xazoyinul-maoniy” debochasidan.)

Tarkibi: (Debochasi yo‘qolgan), I.G‘azallar 628, II. Mustazodlar 3, III. Tarje‘band 3, IV. Qit‘alar 5, V. Ruboiylar 46, VI. Chistonlar 1, VII. Muammolar 6, VIII. Tuyuqlar 1. She‘rlarning umumiy soni 693. Kitobat tarixi: Bu devon XV asrning 80 yillarida tuzilgan. Devondagi she‘rlar keyinchalik shoir tomonidan “Xazoyinul-maoniy” tarkibiga kiritilgan. (ML, MA, AB, KL, 808, KL. 4056 larda yo‘q.)

“Xazoyinul-maoniy” (“Ma‘nolar xazinasi”)

خزائن المعاني

“Chun bu ma‘ni gavharlari barcha ul hazratning tab‘i bahridin va zehin qonidin hosil bo‘ldi, va alfoz va iborat xazoini hamul ma‘nilar gavharilardin to‘ldi, bu ma‘nidin aning otin “Xazoyinul-maoniy” quyildi” (“Xazoyinul-maoniy” debochasidan).

Tarkibi: I.G‘azallar 2600, II. Mustazodlar 2, III. Muxammaslar 10, IV. Musaddaslar 5, V. Musamman 1. VI. Tarje‘band 4. VII. Tarkibband 1. VIII. Masnaviy 1, IX. Qasida 1, X. Soqiynoma 1, XI. Qit‘alar 210, XII. Ruboiylar 133, XIII. Muammolar 52, XIV. Chistonlar 10, XV. Tuyuqlar 13, XVI. Fardlar 86. She‘rlarning umumiy soni 3132. Baytlar soni 22450,5 yoki 44901 misra. Kitobat tarixi: h. 898-904-m. 1492-1498/99. (MA, AB, KL, 808, KL. 4058 larda bor, ML da yo‘q.)

“Xazoyinul-maoniy” Navoiyning barcha turkiy she’riylarini o‘z ichiga olgan devonning umumiy oti bo‘lib, mazkur to‘rt devonga 3132 she’r quyidagi tartibda taqsimlangan:

3. G‘aroyibus-sig‘ar (“Bolalik ajoyibotlari”)

غرايب الصغر

“Ul sababdin avvalg‘i devonnikim, tufuliyat bahori g‘unchasining ajib gullari va sig‘ar gulzori bog‘chasining g‘arib chechaklari bila orasta bo‘lib erdi, “G‘aroyibus-sig‘ar” deyildi” (“Xazoyinul-maoniy”debochasidan).

Tarkibi: I.G‘azallar 650, II.Mustazodlar 1, III.Muxammaslar 3, IV. Musaddas 1, V. Tarje‘band 1, VI. Masnaviy 1, VII. Qit‘alar 50, VIII. Ruboiylar 133. She’rlarning umumiy soni 840. Baytlar soni 5718,5. Kitobat tarixi: h. 898-904-m. 1492-1498/99. (ML, MA, AB, KL, 808, KL. 4056 larda bor.)

4. Navodirush-shabob (“Yigitlik nodirliklari”)

نوادير الشباب

Ikkinchi devonikim, yigitlik oshuftalig‘ va shabob oluftalig‘ yozi va dashtida yuzlangan nodir va vaqo‘tbila piyrosta bo‘lur erdi “Navodirush-shabob” ataladi (“Xazoyinul-maoniy”debochasidan).

Tarkibi: I.G‘azallar 650, II.Mustazodlar 1, III.Muxammaslar 3, IV. Musaddas 1, V. Tarje‘band 1, VI. Tarkibband 1, VII. Qit‘alar 50, VIII.Muammolar 52. She’rlarning umumiy soni 759. Baytlar soni 5423,5. Kitobat tarixi: h. 898-904-m. 1492-1498/99. (ML, MA, AB, KL, 808, KL. 4056 larda bor.)

5. Badoe‘ul-vasat (“O‘rta yosh badealari”)

بدايع الوسط

“Va uchinchi devonikim, vasatul-hayot mayxonasi, ishq bilan shavq paymonasida yuzlangan badoe‘ nishotlar kayfiyatini yozilib erdi, “Badoe‘ul-vasat” ot qo‘yildi” (“Xazoyinul-maoniy”debochasidan).

Tarkibi: I. G‘azallar 650, II.Mustazodlar 1, III.Muxammaslar 2, IV. Musaddaslar 2, V. Tarje‘band 1, VI. Qasida 1, VII. Qit‘alar 60, VIII. Chistonlar 10. IX. Tuyuqlar 13. She’rlarning umumiy soni 740. Baytlar soni 5420. Kitobat tarixi: h. 898-904-m. 1492-1498/99. (ML, MA, AB, KL, 808, KL. 4056 larda bor.)

6. Favoyidul-kibar (“Keksalik foydolari”)

فوايد الكبر

“Va to‘rtinchi devonikim, umrning oxirlarida yuzlangan ishq dardu ranji foydalarikim, jonso‘z oh urmoq va jon topshurmoqdurkim anda sabt bo‘lubtur, “Favoyidul-kibar” laqab berildi” (“Xazoyinul-maoniy”debochasidan).

Tarkibi: I. G‘azallar 650, II.Mustazodlar 1, III.Muxammaslar 2, IV. Musaddas 1, V. Tarje‘band 1, VI. Qasida 1, VII. Qit‘alar 60, VIII. Chistonlar 10. IX. Tuyuqlar 13. She’rlarning umumiy soni 740. Baytlar soni 5420. Kitobat tarixi: h. 898-904-m. 1492-1498/99. (ML, MA, AB, KL, 808, KL. 4056 larda bor.)

7. Devoni Foni

ديوان فاني

“Yana forsiy g‘azaliyot devoni Xoja Hofiz tavidakim, jami’ suxan adolar va nazm piyrolar nazarida mustahsan va matbu‘dur, tartib beribmenkim, olti mingdin abyoti adadi ko‘prakdir” (“Muhokamatul-lug‘atayn”dan).

Forsiy nazm ichra chun surdum qalam,

Nazmning har sinfini qildim raqam...

Fayz yetkach ul maoniydin mango,

Topti bilgu nazm “Foni”dan mango” (“Lisonut-tayr”dan).

Tarkibi: I. Qasidalar 6, II. Gʻazallar 554, . III. 2, Musaddas 1, IV. Marsiya 1, V. Qitʼalar 72, VII. Tarixlar 16, VIII. Muammo 373, IX. Lugʻzlar 9.

Sheʼrlarning umumiy soni 1131. Baytlar soni 6197. Kitobat tarixi: h. 902--m. 1496 yilda tuzilgan. (ML, AB da bor, MA, KL, 808, KL. 4056 larda yoʻq.)

Bundan tashqari, “Devoni Foniyy tarkibiga kiritilgan, olti forsiy qasidalariga qoʻygan nomlari toʻgʻrisida “Muhokamatul-lugʻatayn”da Navoiy shularni yozgan:

a. “Faqir ikkalasi (Xisrav Dehlaviy va Abdurahmon Jomiy – H.S.) buzurgvori rafʼiy miqdorgʻa niyozmandligʻ va gadoligʻ yuzidin tatabbuʻ qilibmen va otin “Tuhfatul-afkor”debmen”.

b. “Va faqir ham “Nasimul-huld” qasidasin ikkala buzurgvorgʻa tatabbuʻ qilibmen”.

v. “Ruhul-quds” qasidasin baland avoza qilibmenki qudsiylar ruh in andin toza qilibmen”.

g. “Yana “Aynul-hayot” qasidasi zulolin yetkurubmenki gʻaflatning oʻluk badanlariga jon kiyurupmen”.

d. “Yana “Minhojun-najot”qasidasida hidoyat tariqin tuzupmen va zalolat ahligʻa najot shahrahin koʻrgazupmen”.

ye. “Yana “Quvvatul-qulub”qasidasiki, qilkim sabt etibdur, haqiqat yoʻlida zaʼfliq koʻngullarga ul qutdin quvvat yetibdur”.

Xamsa

خمسة

“Bu toʻrt devon ovozasin butun dunyoga yetkazganimdan soʻng “Xamsa” panjasiga panja uribman” (“Muhokamatul-lugʻatayn”dan).

“Goʻzal sifatli Amirning manzum asarlaridan biri turkiy “XAMSA” boʻlib, 24 ming baytni oʻz ichiga oladi. Shayx Nizomiyning “Panj ganj”i muqobilida tuzilgan” (“Makorimul-ahloq”dan).

Navoiy “Xamsa”siga kirgan besh dostoni qoʻyidagilardir:

8. “Hayratul-abror” (Yaxshilar xayrati)

حیرت الابرار

“Xayrati abror koʻrib zotini,

“Xayratul-abror” qoʻydim otini”

(“Xayratul-abror”dan).

Boblar 64, baytlar soni 3988. Yaratilish tarixi: h. 889 – m. 1483. (ML, MA, AB, KL. 808, KL. 4056 larda bor.)

9. Farhod va Shirin

فرهاد و شیرین

“Yana – “Farhod va Shirin” shabistoniga xayolim yuz tutganda Mir Xisrav nafasi “Shirin va Xisrav” oʻti bilan chirogʻimni yoritibdur” (“Muhokamatul-lugʻatayn”dan).

Boblar 59, baytlar 5782, Yaratilish tarixi: h.889 – m. 1484. (ML, MA, AB, KL. 808, KL. 4056 larda bor.)

10. Layli va Majnun

لیلی و مجنون

“Yana – “Layli va Majnun” vodiysida ishqim kezib ixlos va gʻayrat gavharnomasidan yetkizgandir” (“Muhokamatul-lugʻatayn”dan).

Boblar 36, baytlar 3622, yaratilish tarixi: h.889 – m. 1484. (ML, MA, AB, KL. 808, KL. 4056 larda bor.)

11. Sabʼai sayyora (Yetti sayyora)

سبیه سیاره

Boʻldi chun bu raqam ishi tayyor

Qoʻydum otini “Sabʼai sayyor” (“Sabʼai sayyor”dan).

Boblar 37, baytlar soni 8005. Yaratilish tarixi: h.890 – m. 1485. (ML, MA, AB, KL. 808, KL. 4056 larda bor.)

12. Saddi Iskardariy

سداسكندرى

“Tanosub bila aql noshovari
Dedi otin “Saddi Iskardariy”

(“Saddi Iskardariy”dan)

Boblar 88, baytlar soni 7215. Yaratilish tarixi: h.890 – m. 1485. (ML, MA, KL. 808, KL. 4056 larda bor.)

13. Lisonut-tayr (“Qushlar tili”)

لسانالطير

“Lisonut-tayr” ovozi bilan qo‘shiq aytib, haqiqat sirlarini qush tili ishorati bilan majoz suratida ko‘rsatibmen” (“Muhokamatul-lug‘atayn”dan).

Boblar 192, baytlar soni 3598. Kitobat tarixi: h. 904 – m. 1498-1499. (ML, AB, MA, KL. 808, KL. 4056 larda bor. MA da yo‘q.)

14 Majolisun-nafois (“Nafis tab‘lilar majlisi”)

مجالس النفايس

“Chun bu maqsudg‘a yetildi, oni sakkiz qism etildi va har qism nafis bir majlisga mavsum bo‘ldi va majnunga “Majolisun-nafois” ot qo‘yuldi” (“Majolisun-nafois”dan).

Boblar 8, satrlar soni 1809. Kitobat tarixi: h. 897-904 – m.1491/92 – 1498/99 yillar o‘rtasida. (ML, MA, AB, KL. 808, KL. 4056 larda bor.)

15. Muhokamatul-lug‘atayn (“Ikki til haqida muhokama”)

محاكمه اللغتين

“...turkiy va sart tili orasidagi ahvol va haqiqatni izohlab, bu risolani tuzdim va unga “Muhokamatul-lug‘atayn deb ot qo‘ydim” (“Muhokamatul-lug‘atayn”dan).

Satrlar soni 228. Yaratilish tarixi: h. 905 yil, jumodil-oxir – m. 1499 yil, dekabr (ML, AB, KL. 808, KL. 4056 larda bor.)

16. Mezonul-avzon (Vaznlar torazusi)

ميزان الاوان

“...aruz fanida bu muxtasar sabb bo‘ldi va anga “Mezonul-avzon” ot qo‘yuldi (“Mezonul-avzon”dan).

Satrlar soni 278. Yaratilish tarixi: h. 1492 yildan keyin (ML, MA, AB, KL. 808, KL. 4056 larda bor.)

17. Risolai muammo (“Muammolar haqida risola”)

رساله معما

“Oliy tabiatli Amir asarlaridan yana bir “Risola mufradot”dirki, muammo fani haqida forsiy tilda yozilgan...” (“Makorimul-ahloq”dan).

Satrlar soni 162. Yaratilish tarixi: h. 898 – m. 1492 (ML da “Mufradot”, MA da “Risolai mufradot”deb atalgan, AB, KL. 808, KL. 4056 larda yo‘q.)

18. Mahbubul-qulub (“Qalblar mahbubi”)

محبوب القلوب

“Chun bu maqolotning qulubqa mahbublug‘i ma‘lum bo‘ldi, anga “Mahbubul-qulub” ot qo‘yuldi” (“Mahbubul-qulub”dan).

Satrlar soni 1350. Yaratilish tarixi: h. 906 – m. 1500/1501.(MA, AB da bor, ML, KL. 808, KL. 4056 larda yo‘q.)

19. Xamsatul-mutahayyirin (“Besh hayrat”)

خمست المتحيرين

“...Chun bu risola xayolga keldi binosin bir muqaddima va uch maqola va bir xotimaga qo‘yuldi va bu besh daf‘a so‘zgakim o‘qiguvchilarga mujib ko‘p hayrat erdi, “Xamsatul-mutahayyirin” tasmiya qilildi. (“Xamsatul-mutahayyirin”dan).”

Satrlar soni 783. Yaratilish tarixi: h. 898 – 901 – m. 1492/93 – 1495/96 yillar o‘rtasida..(MA, AB, KL. 808, KL. 4056 larda bor, ML da yo‘q.)

20. Holoti Sayid Hasan Ardasher

حالات سيد حسن اردشير

“Yana ikki risola o‘sha (turkiy) tilda biri Amir Sayid Hasan ahvoli bayonida...” (“Makorimul-ahloq”dan).

Satrlar soni 162. Yaratilish tarixi: h. 896 – m. 1490/91. ..(MA, AB, KL. 808, KL. 4056 larda bor, ML da yo‘q.)

21. Holoti Pahlavon Muhammad

حالات پهلوان محمد

“...va yana biri Pahlavon Muhammad Abu Sayid holatlari zikrida tartib berilgan” (“Makorimul-ahloq”dan).

Satrlar soni 162. Yaratilish tarixi: h.900 – m. 1491/95 yillardan keyin. ..(MA, AB, KL. 808, KL. 4056 larda bor, ML da yo‘q.)

22. Munshaot (Maktublar to‘plami)

منشآت

“yana biri o‘zlarining har kimga yozgan turkiycha maktublaridirki, risola shaklida to‘plaganlar” (“Makorimul-ahloq”dan).

Satrlar soni 1080. Yaratilish tarixi: h. 897 – m. 1491/95 yillardan keyin tuzilgan. (MA, AB, KL. 808, KL. 4056 larda bor, ML da yo‘q.)

23. Vaqfiya

وقفیه

Yuz shukrki buq‘alar mukammal bo‘ldi,
Vaqfi bu hududkim, mufassal bo‘ldi,
Sakkiz yuz edi sakson olti tarix,
Vaqfiyasi ul kunki, musajjal bo‘ldi. (“Vaqfiya”dan)

Satrlar soni 278. Yaratilish tarixi: h. 886 – m. 1481/82. (AB, KL. 808, KL. 4056 larda bor, MA, ML da yo‘q.)

24. Tarixi anbiyo va hukamo (“Anbiyo va hukamolar tarixi”)

تاریخ انبیا و حکما

“Chun anbiyo alayhissalom tarixi va hukamo so‘zi... mazkur bo‘ldi...” (“Tarixi anbiyo”dan)

Satrlar soni 1269. Yaratilish tarixi: h. 890 – 904 – m. 1485 – 1498/99 yillar o‘rtasida. (ML da Navoiy bu ikki tarixiy asarini “Zubdatut-tavorix” deb atagan, MA, AB, KL. 808, KL. 4056 larda bor.)

25. Tarixi Mulki Ajam (Eron podshohlari tarixi)

تاریخ ملوک عجم

“Emdi Ajam mulki zikrini qiloli” (“Tarixi muluki Ajam”dan). “Xamsa” yozish ishidan bo‘shaganimdan keyin xayolimning dunyo kezar otini podshohlar tarixi dashtiga qarab chopibman, shunday qilib, yozuv qorasi zulmatidin “Zubdatut- tavorix”ni chiqozib, podshohlarning o‘lgan nomini bu tiriklik suvi bilan turgizibman” (“Muhokamatul-lug‘atayn”dan).

Satrlar soni 810. Yaratilish tarixi: h. 890 – m. 1485 yildan keyin. (ML, MA, AB, KL. 808, KL. 4056 larda bor.)

26. Chihl hadis (“Qirq hadis”)

چهل حدیث

“Va yana go‘zal sifatli Amirning manzumalaridan biri “Chihl ruboiy” durki “Chihl hadis” tarjimasidur” (“Makorimul-ahloq”dan).

Satrlar soni 80. Yaratilish tarixi: h. 886 – m. 1481/82. (MA,da “Chihl ruboiy”, AB, KL. 808, KL. 4056 larda bor, MLda yo‘q.)

27. Nazmul-javohir (“Gavharlar shodasi”)

نظمال جواهر

“Nasrulluoliy” xazinalarining tarjimasiga yetganimda “Nazmul-javohir” bilan ma‘ni qizlarining kiyimlarini bezantirdim (“Muhokamatul-lug‘atayn”dan).

Baytlar soni 520. Yaratilish tarixi: h. 890 – m. 1485. (ML, MA, AB, KL. 808, KL. 4056 larda bor.)

28. Nasoyimul-muhabbat (“Sevgi shabadalari”)

نسایم المحبت

“...anga “Nasoyimul-muhabbat” min shamoyimul-futuvvat” ot quydim” (“Nasoyimul-muhabbat”dan). “Nasoyimul-muhabbat” hidlari bayonidan qalamın yaxshiliklar keltirgach, avliyolarning muqaddas ruhi fayzidan dunyo to‘libdur (“Muhokamatul-lug‘atayn”dan).

Satrlar soni 80. Yaratilish tarixi: h. 886 – m. 1481/82. (MA,da “Chihl ruboiy”, AB, KL. 808, KL. 4056 larda bor, MLda yo‘q.)

29. Sirojul-muslimin (“Musulmonlar charog‘i”)

سراج المسلمین

Bu asarning qo‘lyozma nusxasi bilan tanish bo‘lmaganimiz uchun avtor qo‘ygan nomni ko‘rsata olmadik.

Satrlar soni 135. Yaratilish tarixi: h. 905 – m. 1499/1500. (AB, KL, 808, KL. 4056 larda bor, ML, MA da yo‘q.)

30. Munojotnoma

مناجاتنامه

Bu asarni shoir o‘z kulliyotiga muqaddima sifatida yozgan. Sovet kutubxonalarida “Munajatnoma”ning nusxasi bo‘lmaganidan avtor qo‘ygan nomni aniqlay olmadik.

Satrlar soni 50. Yaratilish tarixi: h. 905 – m. 1499/1500. (AB, KL, 808, KL. 4056 larda bor, ML, MA larda yo‘q.)

31. Forsiy munshaot (“Forscha maktublar to‘plami”)

منشآت فارسی

Bu forsiy maktublar to‘plamining qo‘lyozmasi hozircha hech yerda yo‘luqmadi. (AB da bor, ML, MA, KL 808, KL 4056 larda yo‘q.)

32. Fusuli arbaa (“To‘rt fasl”)

فصول اربعه

“Yana zohir shuarosi tariqida ham to‘rt qasidaki, “Fusuli arbaa” mavsumdur” (“Muhokamatul-lug‘atayn”dan).

Bu asar ham hozirgacha topilgan emas (ML da bor, MA, AB, KL, 808. KL. 4056 larda yo‘q).

Navoiy turkiy maktublarini kitobat qildirgani uning “Munshaot” asaridan ma‘lum. Ammo o‘z davrida shoirning ko‘p va muhim xatlari fors tilida ham yozilishi tabiiydir. “Makorimul-ahloq” va “Abushqa” avtorlari shoirning forsiy munshaotlari mavjud bo‘lganligi haqidagi xabarlariga to‘la

ishonsa bo‘ladi. Shu sababli, garchi bu asarning ismi boru o‘zi bo‘lmasa ham Navoiyning asarlari ro‘yxatiga kiritildi. Shuningdek “Muhokamatul-lug‘atayn”da Navoiy eslatib o‘tgan “Fusuli arbaa” qasidasi ham topilmagan asarlari qatoriga qo‘shildi.

Dastlabki turkiy she‘rlaridan ikki devon tuzib, birining otini “Badoe‘ul- bidoya”, ikkinchisining nomini “Navodirun-nihoya” ataganini shoir “Xazoyinul-maoniy” debochasida gapirgan edi. Garchi bu ikki devon she‘rlari keyinchalik “Hazoyinul-maoniy” tarkibiga qo‘shilib, uning to‘rt devoniga taqsim qilingan bo‘lsa ham, Navoiy devonlarining dastlabki redaksiyalari sifatida bu ikki devon nomi ham ro‘yxatda aks ettirildi. “Sab‘atu abhur” nomli arabcha-o‘zbekcha lug‘at qo‘limizda bo‘lmaganligi va masala ustida yana tadqiqot ishlari olib borishimiz zarurligidan biz buni hozircha ro‘yxatga kiritmadik. Shuningdek, Navoiyniki ekani shubhali va haqiqatdan uzoq bo‘lganligi sababli “Risolai tirandoziy” ham ro‘yxatdan chetda qoldi.

Ro‘yxatdagilardan tashqari Navoiyning bizgacha yetib kelmagan boshqa asarlari bo‘lishi mumkinmi? Albatta mumkin, Navoiyning deyarli barcha asarlarini sanab chiqqandan keyin “Abushqa” avtor “Va bulardin g‘ayri daxi kitoblari bor ediki, ma‘lum o‘lmadi...” deydi [13, – B. 24]. Xulosa shuki, Navoiy asarlarining biz tomonimizdan tuzilgan ro‘yxati kelgusida yana yangi topilajak asarlar hisobiga boyishi mumkin.

“Devoni Foni” Navoiyning yangi topilgan asari bo‘lgani uchun biz muhtaram kitobxonlarni bu asarning qo‘lyozma manba‘lari bilan mufassalroq tanishtirmoqchimiz.

O‘rta Osiyoda yashovchi turkiy xalqlar ko‘p asrlardan beri tojik va eron xalqlari bilan aralashib ketganlar. Bu xalqlarning urf-odatlarini, etnik xususiyatlari, iqtisodiy-madaniy hayotlaridagi mushtaraklik, mehnat va ijodagi hamkorliklari tarixi uzoq asrlardan boshlanadi. Ana shu tarixiy faktorlar o‘zbek tili va yozma adabiyotda ham chuqur iz qoldirgan. Turkiy xalqlar, shu jumladan o‘zbeklar, og‘zaki nutq ham yozma adabiyotda fors-tojik tilidan keng foydalanganlar. Eng qadimgi davrlardan boshlab deyarli hamma o‘zbek adiblari har ikki tilda ijod etganlar. Buyuk o‘zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy “Foni” taxallusi bilan fors tilida ham progressiv g‘oyalar va yuksak insoniy tuyg‘ularni ifodalovchi lirik asarlar yaratgan. O‘zining forsiy qasida va g‘azallarining ko‘pini fors-tojik adabiyoti klassiklari Muslihiddin Sa‘diy, Hofiz Sheroziy, Amir Xusrav Dehlaviy, Abdurrahmon Jomiy va boshqalarga she‘riy javob – tatabbu‘ va tavr yo‘lida yozgan o‘n ikki ming misra‘ atrofidagi forsiy she‘rlaridan tashkil topgan kitobiga misra‘ atrofidagi forsiy she‘rlaridan tashkil topgan kitobiga Navoiy “Devoni Foni” deb ot qo‘ygan. Afsuski, shoir merosining salmoqli qismini tashkil etgan bu asar so‘nggi yillargacha sovet sharqshunoslari tomonidan ham, xorijiy mamlakat olimlari tomonidan ham jiddiy o‘rganilmagan. S. Ayniy, A.A.Semenov, H.Homidov kabi olimlarimizning Navoiy forsiy she‘rlarining haqiqiy nusxalarini aniqlash yo‘lida olib borgan ishlari ham jiddiy natija bermadi, chunki ularning xulosalari taxminiy mulohazalardan kelib chiqqan.

Navoiyning forsiy she‘rlari haqida hamma manba‘lar va ilmiy adabiyotda (Xondamir, Davlatshoh, Bobir, “Abushqa” lug‘atining avtor, S.Ayniy, Ye.E.Bertels, A.A.Semenov, A.Sa‘diy va b.) “Muhokamatul-lug‘atayn”da shoirning o‘zi aytgan “Devoni Foni” olti ming baytdan iborat, degan ma‘lumotni takrorlash bilan cheklanilgan. Lekin devonning mazmuni, janrlar tarkibi haqida biror avtor ham hech qanday ma‘lumot bermaydi. Sovet fondlarida Navoiyning “Devoni Foni” asarining asl nusxasi yo‘q bo‘lganligidan olimlarimiz bu masala ustida samarali ish olib borish imkoniyatlaridan mahrum edilar, xorijiy fondlardagi qo‘lyozmalarni esa chet el sharqshunoslari tekshirib o‘rganmaganlar. To‘g‘risini aytganda, xozirgacha Navoiy forsiy she‘rlarining asl nusxasini axtarish, to‘plash, tekshirish va aniqlash ishi bilan xech kim maxsus shug‘ullanmagan.

Sovet matbuotida Navoiyning forsiy she‘rlarini tekshirish yo‘lidagi birinchi ma‘lumot 1926 yilda e‘lon qilingan. Mashhur yozuvchi va olim Sadridin Ayniy tomonidan nashr etilgan “Namunai adabiyoti tojik” kitobida Navoiyning Jomiyga javoban yozgan “Tuhfatul-afkor” qasidasidan 18 bayt namuna sifatida bosilgan.

O‘ttizinchi yillarning oxirida prof. S.Ayniy Navoiyning forsiy merosini tekshirishni davom ettirib, O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Toshkentdagi qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan Muhammad Muhsin Foni Kashmiriyning uch qo‘lyozma devonini [14, inv. № 914, 916, 3343] birinchi bo‘lib sinchiklab tekshiradi. Ayniy o‘z tadqiqotlari natijasida uch qo‘lyozmadagi

she'rlarning bir qismi Navoiyniki bo'lib, Foniylash Kashmiriy devoniga noto'g'ri kiritilgan, degan xulosaga keladi.

Foniylash Kashmiriy devonining uch nusxasidan 97 g'azal, 2 qit'a, 14 ruboiyni Ayniy uslubi va mazmuniga ko'ra Navoiyniki, deb tanlaydi. Shoirning boshqa manba'lardan olingan ba'zi forsiy she'rlarini qo'shib, Ayniy Navoiyning forsiy she'rlarining kichik hajmidagi to'plamini tuzdi va "Alisher Navoiy" nomli monografiyasida ilova sifatida bostirdi [15, – B. 185-241].

Ayniy Alisher Navoiyning forsiy she'rlarini nashr ettirishdan avval bu she'rlarning chindan ham Navoiyniki ekanligini aniqlash uchun qator antologiyalar, radiflar to'plamlari, tazkiralalar va boshqa manbalarga solishtirganligi va Navoiyniki ekanligiga ishonch hosil qilganligini aytadi. Afsuski, bu manba'lar qaysi asrga oid va qaerda saqlanayotganligi haqida xech qanday ma'lumot berilmaydi. Shu sababdan Ayniy foydalangan antologiya va radiflar to'plamlarini aniqlash hozirda mushkuldir.

Alisher Navoiyning Ayniy tomonidan tuzilib, nashr ettirilgan to'plami o'n lirik janrdan iborat 140 she'rni o'z ichiga oladi: I- qasida – I, II g'azallar – 97, III musaddas – I, IV soqiynoma – I, V tarje'band (marsiya) – I, VI qit'a – 2, VII ruboiy – 14, VIII lirik fragmentlar – 5, IX tarix (xronogramma) – 3, X muammo – 15. Hamma she'rlar xajmi 711 bayt. Endilikda biz yangi topilgan "Devoni Foniylash"ning Parijdagi ikki haqiqiy nusxasi bilan Ayniy nashr ettirgan she'rlarni solishtirish imkoniyatiga ega bo'lganimizda ma'lum bo'ldiki, Ayniy to'plamidagi 97 g'azaldan faqat 6 tasi Navoiyning haqiqiy forsiy she'ri bo'lib, qolgan 91 tasi esa "Foniylash" taxallusidagi boshqa shoirlarniki ekan.

Ayniy monografiyasining o'ninchi bobi Navoiylash forsiy she'rlarining g'oyaviy-badiiy analiziga bag'ishlangan. Bu bobda mazkur 97 g'azal har yoqlama tekshirilib, ular asosida Navoiyning ijtimoiy – siyosiy qarashlari va poetik mahorati haqida fikr yuritilgan ma'lum xulosalar ham chiqarilgan.

"Devoni Foniylash" ning uch Toshkent nusxasi xoshiyalaridagi Ayniy tomonidan qilingan belgilardan foydalanib, 1945 yili Xakim Homidov o'zining dissertatsiyasiga "Devoni Foniylash" haqida alohida bob kiritgan edi. Bu bobda Homidov Ayniy belgilarini to'liq qabul qilgani holda o'sha 97 g'azalning g'oyaviy asoslari va badiiy mahorati haqida nazariy fikrlar yuritadi.

1959-1960 yillarda O'zbekiston Fanlar Akademiyasi o'zbek adabiyoti tarixining to'rt tomlik xrestomatiyasini nashr ettirdi. Bu nashrning ikkinchi tomi oxirida "Namunai she'rhoi forsi-tojiki Alisher Navoiylash (Foniylash)" sarlavhasi ostida Navoiyning forsiy she'rlaridan namunalar berilgan [16, – B. 631-649]. Navoiyning forsiy she'rlari bevosita Ayniy to'plamidan olingani uchun Navoiylash aloqasi bo'lmagan 19 g'azal, 1 soqiynoma, 2 qit'a va 5 ruboiy shoirning forsiy she'rlari namunasi sifatida e'lon qilingan.

Navoiylash forsiy she'rlarini tekshirish yuzasidan ish olib borgan olimlar o'rtasida Sharq adabiyoti va qo'lyozma yodgorliklarining mashhur bilimdoni prof. Sadriddin Ayniyning tadqiqotlari, ayrim muvaffaqiyatsizliklarga qaramay, alohida diqqatga sazovordir. "Devoni Foniylash"ning asl nusxasi qo'l ostida bo'lmaganligiga qaramay, Ayniy bir necha yil davomida Navoiylash forsiy she'rlarini juda ko'p qo'lyozma manba'lardan izlagan, o'nlab nusxalarni til va uslub jihatidan harfma-harf muqoyisa qilgan, g'oyat serdiqqat ish olib borgan. Alisher Navoiylash forsiy she'rlarining birinchisi tadqiqotchisi Sadriddin Ayniy bo'ldi.

Endi qo'limizda "Devoni Foniylash"ning asl nusxalari bo'lgani tufayli o'tmishdagi olimlarning qaysi fikrlari to'g'ri, qaysilari noto'g'ri ekanligini imkoniga egamiz.

1955 yilda biz Ayniy boshlagan ishni davom ettirib, Alisher Navoiylash "Devoni Foniylash" asarini axtarishga kirishdik. Olti yil davomida qunt bilan izlashlar natijasida shoirning forsiy merosi haqida bir qancha ma'lumotlar to'plashga, xorijiy fondlarda devonning asl nusxalari borligini aniqlashga muvaffaq bo'ldik.

Xozirgacha hamma olimlar bir og'izdan Navoiylash "Devoni Foniylash" asarining asl nusxasi topilgan emas, deb da'vo qilgan edilar (ular Sovet fondlarini nazarda tutgan bo'lsalar kerak) 1948 yilda o'zining "Alisher Navoiylash va tojik adabiyoti" maqolasida prof. S.Ayniy: "Alisher Navoiylash nisbat berilishi mumkin bo'lgan "Devoni Foniylash" hozircha maydonda yo'q" [17] deb yozgan edi. "Devoni Foniylash"ning sovet fondlarida yo'qligini prof. Ye.E.Bertels ham ta'kidlab o'tgan edi: "Uning

forsiy she'rlari devonga to'plangan edi. Afsuski, bu devonning qo'lyozmalari bizning kutubxonalarimizda yo'q" [18, – S. 108.].

To'rt xorijiy kataloglardan Parij, Anqara va Tehronda Navoiy "Devoni Foni" asarining besh nusxasi borligini aniqladik. Bu qo'lyozmalardan Parijdagi Fransuz Milliy Kutubxonasida saqlanayotgan [19] va Bloshe katalogida tasvir etilgan ikki qo'lyozmaning (inv.285 va 1345) mikrofilmlarini olishga muvaffaq bo'ldik har ikkala qo'lyozmaning mazmuni va tarkibi bilan tanishish natijasida ma'lum bo'ldiki, bular Alisher Navoiyning forsiy she'rlar to'plami "Devoni Foni"ning noyob va juda yaxshi saqlangan haqiqiy nusxalaridir.

"Devoni Foni"ning ikki Parij nusxasi bu asar haqidagi turli adashish va taxminlarga uzil-kesil chek quydi. Endi mana shu Parij nusxalari asosidagina Navoiy ijodining salmoqli qismini tashkil etgan uning forsiy she'rlarini ilmiy asosda o'rganish boshlanadi deyish mumkin.

Parij qo'lyozmalarini tasvirlashdan avval Navoiyniki bo'lmagan "Devoni Foni"ning sovet fondlarida saqlanayotgan yetti nusxasi [20] va ularning avtorlari bilan tanishtirib o'tishni lozim topamiz. So'zni bu qo'lyozmalarining avtorlaridan boshlaymiz. Alisher Navoiygacha "Foni" taxallusi bilan ijod qilgan shoirlar bo'lganligi bizga ma'lum emas. Ammo Navoiydan keyin turli asrlarda "Foni" taxallusi bilan fors tilida she'rlar yozgan bir qancha shoirlar bo'lgan. Ilmiy adabiyot, shu jumladan, qo'lyozma, bayoz va tazkiralarda "Foni" taxallusi bilan ijod qilgan bir necha shoirlar uchraydi. Shamsiddin Somiy va Sadridin Ayniy Alisher Foniyaning tashqari "Foni" taxallusi bilan ijod etgan ikki shoir ma'lum ekanini ko'rsatadi. Bularning birinchisi – Xo'ja Ahmad Dehdor Foni Sheroziy. Bu shoir sherozlik bo'lib, Xindistonga ko'chib borgan va asosan, o'sha yerda ijod etgan. Dehdor Foni 1016-1607/08 yilda vafot etgan. Ikkinchisi – Muhammad Muhsin Foni Kashmiriy buxorolik bo'lib, Hindistonning Kashmir shahriga borib, istiqomat qilgan, ma'lum vaqt Dehli xokimi xizmatida bo'lib, keyinchalik yana Kashmirda qaytgan, shu joyda 1081-1670/71 yilda vafot etgan. Ayniyning aytishicha, bu shoirlarning g'azallari "hind uslubida" yozilgan. Demak, XVII asrdayoq Sharq adabiyoti tarixida Foni taxallusi ostida Navoiy bilan uch shoir fors tilida ijod etgan.

Chamasi, ham Dehdor Sheroziy, ham Muhsin Kashmiriy Alisher Foniyaning asarlari bilan tanish bo'lgan bo'lsalar kerak, ehtimolki, o'z taxalluslarini ham Alisherdan olgandirlar. Alisher Foni g'azallarining ikki hind shoirining asarlariga aralashib qolishi ham XVII asrga oid bo'lsa kerak, deb o'ylaymiz. Keyinchalik, "Foni" taxallusi bilan ijod etgan boshqa shoirlarning asarlari ham Foni Sheroziy, Foni Kashmiriy va Alisher Foni asarlariga kompelyativ devon va bayozlarda, avvalgidan battarroq qorishib ketgan.

Sovet fondlaridagi "Devoni Foni"ning yetti nusxasi Foni Kashmiriy, Foni Sheroziy, Foni Alisher va shu taxallusdagi hozircha bizga noma'lum bo'lgan boshqa shoirlarning asarlaridan tuzilgan terma devonlarning nusxalaridir. Bu qo'lyozmalarining hammasi XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida Buxoro va Xivada ko'chirilgan, ko'chirilgan tarixi va kotiblari aniq.

"Devoni Foni"ning ikki fransuz nusxasini sinchiklab o'rganib, ularning mazmuni, hajmi va kompozitsiyasini aniqlaganimizdan keyingina, bir Tehron [21] nusxasi va ikki Turkiya [22, № 3850] nusxalariga muqoyasa qilinganda, bu uch nusxa ham boshqa Foniylar emas, balki Alisher Foni qalamiga taalluqliligi ma'lum bo'ldi.

Ikki Parij nusxasiga tayanib, biz Navoiy forsiy devonining avtor redaksiyasiga asos sifatida eng to'liq va tarixga ega qo'lyozmani (Parij, № 285) oldik va ba'zi she'rlarni Parij, № 1345 dan ko'chirib to'ldirdik. Biz tiklagan avtor redaksiyasining to'liqligiga ishonch hosil qilish maqsadida "Devoni Foni"ning Tehron №15002, Turkiya № 1952, 3850 qo'lyozmalarining kataloglardagi tasviri bilan ham solishtirib chiqdik.

Besh qo'lyozmani sinchiklab muqoyasa qilish, ularning mazmuni, tarkibi, kompozitsiyasining bir xilligini va qo'lyozmalarining hammasi Navoiy yaratgan haqiqiy "Devoni Foni"ning besh nusxasi ekanini isbotladi.

"Muxokamatul-lug'atayn"da shoir "Devoni Foni" haqida shunday degan edi: "Yana forsiy g'azaliyot devoni Xoja Hofiz tavidakim jam'i suxan adolar va nazm piyrolar nazarida mustahsan va matbu'dur, tartib beribmankim, olti mingdan abyoti adadi ko'brakdurki, ko'brak ul hazrat she'rig'a tatabbu' voqe' bo'lubdur. Va ba'zi hazrat Shayx Muslihiddin Sa'diy quddisa sirrahug'akim, g'azal tavi muxtare'dur. Va ba'zi Mir Xisravg'akim, ishq otashkadesining shula' angezidur va dard

g‘aribxonasining ashk rezi. Va ba‘zi hazrat Mahdum (Abdurrahmon Jomiy) nurayng‘akim, kamol avjining mehri lam‘idur. Va mazkur bo‘lg‘on azizlar holotining jam‘iki bu devon xaloyiq arosida shoe‘dur. Va ro‘zgor ahlining tab‘lari ul sori roje‘. Va anda ko‘b turluk dilkash adolar va dilpazir ma‘nolar voqe‘durki, tafsili bu faqirdin munosib emas. Va anda har nav‘ nazm asnofidin misli muqattaot va ruboiyot va masnaviy va tarix va lug‘z va ul jumladin besh yuzga yaqin muammo...” [23. – B. 35].

Hamma besh qo‘lyozma Navoiy “Devoni Foniyy” asarining mazmuni, janrlari va hajmi haqida “Muhokamatul-lug‘atayn” bergan ma‘lumotni tasdiqlaydi. “Devoni Foniyy”ning biz aniqlagan avtor redaksiyasi shoirning o‘zbek tilidagi devonlariga o‘xshash mukammal kompozitsiyaga ega. Yuqorida besh qo‘lyozma asosida tiklangan “Devoni Foniyy” tarkibi quyidagicha:

Debocha	V Qit‘a 72
I Qasida 7	VI Ruboiy 73
II G‘azal 554	VII Tarix 16
III Musaddas 1	VIII Muammo 373
IV Marsiya 1	IX Lug‘z 9

Devonning aniqlangan umumiy xajmi 6197 baytdan iboratdir. Endilikda Alisher Foniyy she‘rlarining haqiqiy tekstini aniqlash problemi uzil-kesil hal etildi desak xato qilmagan bo‘lamiz.

Shuni eslatib o‘tish zarurki, “Devoni Foniyy” fanda ma‘lum bo‘lgan Navoiy kulliyotlarining birontasiga ham kiritilmagan. Bu asar, hozirgi ma‘lumotlarga qaraganda, faqat alohida devon shaklida ko‘chirilib tarqatilgan [24].

O‘n besh tomlikning beshinchi tomini tashkil qiladigan “Devoni Foniyy” bilan Navoiyning forsiy she‘rlari tarixda birinchi martaba nashr etiladi. Bu nashr tarjima, izoh va sharhlar bilan ta‘minlanadi. “Devoni Foniyy”ning maxsus va mukammal akademik nashri alohida nashr etilajak.

Alisher Foniyyning fors-tojik she‘rlari haqiqiy nusxasining topilib, xalqimizga taqdim etilishi madaniyatimiz va adabiyotimiz tarixida zo‘r voqeadir. “Devoni Foniyy”ning 12394 misra‘dan iborat 1131 she‘ri Navoiy poetik dahosining noyob mahsuli sifatida shoir dunyoqarashi va poetik mahoratini o‘rganish bobida yangi xazina – butun bir dunyo ochadi.

Alisher Navoiy asarlarining o‘n besh tomda birinchi martaba nashr etilishi adabiyotimiz tarixida zo‘r voqe‘a bo‘lishi bilan birga, ayni vaqtda shoir asarlari majmuasini chop etishda ham birinchi tajribadir. Navoiy asarlarining o‘n besh tomligi tur e‘tibori bilan ommaviy nashr bo‘lib, keng kitobxonlar ommasiga intelligensiya, oliy o‘quv yurtlarining filologiya fakulteti studentlari, til va adabiyot muallimlari, adabiyot ahillari, umuman olganda, keng jamoatchilikka mo‘ljallangan. Shu sababdan O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Til va adabiyot institutining ilmiy kengashi mazkur nashrda Navoiy asarlaridan g‘oya va badiiy jihatdan davrimiz talablariga javob beradigan qismlarni birinchi navbatda nashr etishni maqsadga muvofiq deb topdi.

Devonlarda har bir lirik janr namunasi to‘la saqlanadi. G‘azallarda avtor qo‘llagan alifbe tartibi barcha devonlarda mutanosib ravishda beriladi. “Devoni Foniyy” va “Risoi muammo” kabi fors tilida yaratilgan asarlar, kitoblarga yengillik tug‘dirish maqsadida o‘zbekcha tarjimasini bilan beriladi.

Navoiy asarlari nashrga tayyorlashda tekstlar eng qadimiy mo‘tabar qo‘lyozma manba‘larda qanday bo‘lsa, aynan olinadi.

Odatda, adabiyot klassiklarning ko‘p tomlik nashrlarida asarlar turli tartibda joylashtiriladi: xronologik ravishda, ahamiyatiga ko‘ra, asarlarning mavzulari, adabiy janrlariga ko‘ra va hokazolar. XV-XVI asrlarda tartib etilgan Navoiy kulliyotlarida ham asarlarni kulliyotga joylashtirish masalasida qat‘iy bir qoidaga amal qilinmagan. Ba‘zi kulliyotlarda avval devonlar, keyin dostonlar, oxirida prozaik asarlar beriladi. Boshqa birlarida avval dostonlar, undan so‘ng devonlar va proza. Ko‘pchilik kulliyotlarda asarlar aralash holda joylashtirilgan. Hatto shunday qo‘lyozma kulliyotlar yo‘liqadiki, unda “Xazoyinul-maoniyy” devonlari bilan “Xamsa” dostonlarining ichki tartibi ham mutlaqo buzilib ketgan.

Alisher Navoiyning o‘n besh tomlik uchun ajratilgan 23 ta asarini biz tomlarga, asosan, adabiy janrlar (lirika, dostonlar, proza) va proza janri ichida yana asarlar temasiga qarab taqsimladik

(filologik asarlar, biografik asarlar, tarixiy asarlar). “Xazoyinul- maoniy” devonlari bilan “Xamsa” dostonlarini tomlarga ajratilganda Navoiyning o‘zi kiritgan tartib saqlandi. “Xazoyinul-maoniy”ning to‘rtinchi devonidan so‘ng “Devoni Foni”, “Xamsa”ning beshinchi dostonidan keyin “Lisonut-tayr” joylashtirildi. Qisqasi nashr uchun tanlangan asarlarni tomlarga taqsimlashda xronologik prinsipga nisbatan janrlarga ko‘ra taqsim qilish har jihatdan qulay ko‘rindi. Asarlar tomlarga taqsimlanganda har bir kitob hajm jihatdan asosan bir xilda bo‘lib, bir-biridan ortiqcha farq qilmasligi ham nazarda tutildi.

Alisher Navoiy asarlarining tomlarga taqsimlanishi:

“Xazoyinul-maoniy”: 1-tom “G‘aroyibus-sig‘ar”, 2-tom “Navodirush-shabob”, 3-tom “Badoe‘ul vasat”, 4-tom “Favoyidul-kibar”, 5-tom “Devoni Foni”, “Xamsa”, 6-tom “Xayratul-abror”, 7-tom “Farhod va Shirin”, 8-tom “Layli va Majnun”, 9-tom “Sab‘ai sayyor”, 10-tom “Saddi Iskandariy”, 11-tom “Lisonut-tayr”, 12-tom “Majolis un nafois”, 13-tom “Muhokamatul-lug‘atayn”, “Mezonul-avzon”, “Risolai muammo”, “Mahbubul-qulub”. 14-tom “Xamsatul mutahayyirin”, “Xoloti Sayid Hasan Ardasher”, “Xoloti Pahlavon Mahmud”, “Nazmul-javohir”. 15-tom “Munshaot”, “Vaqfiya”, “Tarixi muluki Ajam”.

Navoiy asarlarining o‘n besh tomlik nashri uchun asos qilib olingan manba‘lar masalasi alohida ahamiyatga ega. Bu masalada mazkur nashrni tayyorlashda ishtirok etgan olimlar kollektivi birinchi navbatda qadimiy qo‘lyozmalar yodgorliklardan, ikkinchidan shu mo‘tabar qo‘lyozmalar asosida tuzilgan Navoiy asarlarining ilmiy-tanqidiy tekstlaridan foydalandilar. Umuman olganimizda, shoir merosini o‘rganish va asarlarining haqiqiy (kanonik) tekstini to‘liq tiklash uchun sovet fondlarida mavjud bo‘lgan qo‘lyozmalar o‘zining qadimiyligi, mo‘tabarligi ham ko‘pligi jihatidan asosan kifoya qiladi desak bo‘ladi. Chunki bizdagi 20dan ortiq qo‘lyozmalar, shu jumladan, bir kulliyot (Leningrad, Saltikov-Shchedrin nomidagi kutubxona, № 55) XV asrga oiddir. Yana o‘ndan oz bo‘lmagan qo‘lyozmalar XVI asrda ko‘chirilgan. Shu bilan birga chet el kutubxonalarida Navoiy asarlarining eng mo‘tabar nusxalaridan ham mikrofilm va fotokopiyalarini olish yo‘li bilan, bizning olimlaramiz tuzgan tanqidiy tekstlarida va mazkur o‘n besh tomlikni nashrga tayyorlashda foydalanganlar.

O‘n besh tomlikka kirgan Navoiyning 23 asaridan, yuqorida ko‘rsatganimizdek, hozirgi vaqtda yigirmatasining tanqidiy teksti tuzilib bo‘lingan, bularning bir nechasi nashr etilgan. Navoiy asarlarining tanqidiy tekstlari uchun jalb qilingan va bu 15 tomlik nashrda ham bevosita foydalanilgan 100 dan ortiq qo‘lyozma manba‘lar haqida mufassal ma‘lumot, tekstni tuzgan olimlarning tekstologik tadqiqotlarida berilgan (“Xamsa”ning tanqidiy teksini filologiya fanlari kandidati Solih Mutallibov (“Hayratul-abror”, 1944), filologiya fanlari doktori G‘ulom Karimov (“Layli va Majnun”, 1945), filologiya fanlari kandidati Porso Shamsiev (“Sab‘ai sayyor”, 1953, “Farhod va Shirin”, 1959, “Saddi Iskandariy”, 1962) tuzganlar. Sharofiddin Eshonxo‘jaev 1962 yili “Lisonut-tayr” tanqidiy tekstini tugatdi.

Navoiy prozalarining ilmiy-tanqidiy tekstini filologiya fanlari doktorlari Izzat Sulton (“Mezonul-avzon”, 1948), Aleksandr Nikolaevich Kononov (“Mahbubul-qulub”, 1948), filologiya fanlari kandidatlari Mixail Aleksandrovich Sale (“Holoti Pahlavon Muhammad” va “Holoti Sayid Hasan Ardasher”, 1945), Suyima G‘anieva (“Majolisun-nafois”, 1957) va “Tarixi muluki Ajam” va “Tarixi Anbiyo” (1963) tekstini Latif Xalilovlar tuzganlar.

Shoir lirikasining tanqidiy tekstini filologiya fanlari doktori Hamid Sulaymon (“Xazoyinul-maoniy”; “G‘aroyibus-sig‘ar”, “Navodirush-shabob”, “Badoe‘ul-vasat”, “Favoyidul-kibar”, “Devoni Foni” va prozadan “Risolai muammo”, 1956-1962), filologiya fanlari kandidati Yoqub Isoqov (Navoiy ilk lirikasidan tuzilib, 1465 yilda Sulton Ali Mashhadiy ko‘chirgan devon, 1963) va Maryam Rahmatullaeva (“Navodirun-nihoya”, 1963) tuzganlar. O‘n besh tomlikdagi qolgan uch asar – “Munshaot”, “Vaqfiya” va “Xamsatul-mutahayyirin”ning tanqidiy tekstlarini O‘zSSR FA Til va adabiyot instituti ilmiy xodimlari tuzmoqdalar.).

Bu nashr keng kitobxon ommasiga mo‘ljallangani uchun tabiiydurki, hamma tom tekstlarini bir xilda kommentariya va har xil ko‘rsatkichlardan iborat bo‘lgan ilmiy apparatlar bilan ta‘minlashga ehtiyoj sezilmadi. Ayniqsa devon tekstlariga (1-5 tomlar), Navoiy lirikasining ko‘p masalalari shoirning ikki debochasida mufassal yoritilganligidan, hech qanday sharh va izohlar berilmaydi. “Xamsa” dostonlari bilan “Lisonut-tayr”ning tarixiy va adabiy hodisalar bilan bog‘liq bo‘lgan alohida boblari, tushunilishi qiyin bo‘lgan ba‘zi bayt va so‘zlariga har tom oxirida qisqacha izohlar beriladi. Ammo, tushunilishi birmuncha murakkab va o‘z ichiga juda ko‘p tarixiy voqealar, shaxsiy va geografik nomlarni olgan prozaik asarlarga lozim topilgan darajada kommentariya va izohlar beriladi.

Ma'lumki, Navoiy asarlarining tili bundan besh yuz yil avvalgi til bo'lib, hozirgi zamon kitobxonlarining ma'lum tayyorgarliksiz tushunishi qiyindir. Buning sababi Navoiy asarlarining leksikasida arab, fors so'zlarining ko'pligi uchungina emas, balki undagi ko'p turkiy so'zlarning bugunda iste'moldan chiqib, arxaik holga kelganligida hamdir. Buning ustiga XV asr o'zbek adabiy tili grammatik qurilish va uslub masalalari ham bugungi o'zbek adabiy tilidan farq qiladi. Shularning xammasi bugungi ko'pchilik kitobxonlarga Navoiy tekstlarini o'qish va anglashda ancha qiyinchiliklar tug'diradi. Bu ahvoldan qutulish uchun hozirgi vaqtgacha Navoiyning har bir asari oxirida kichik lug'atlar ilova qilinib kelingan: O'n besh tomlikda bu tajribadan foydalanib bo'lmaydi.

Tushunilishi og'ir bo'lgan ko'pchilik so'zlar (glosslar), alohida so'z birikmalari shoirning barcha asarlari uchun mushtarakdir. Shuni nazarda tutib, Navoiy asarlari uchun bir tomlik maxsus lug'at tuzib o'n besh tomlikka ilova sifatida nashr etish har jihatdan maqsadga muvofiq topildi.

Qadimgi davrlardayoq ulug' shoir asarlarini to'g'ri o'qish va to'g'ri tushunish uchun bir necha lug'atlar tuzilgan edi. Bulardan eng mashhur va muhimlari sifatida "Abushqa", "Badoe'ul-lug'at", "Sangilloh" va shayx Sulaymon Buxoriyning "Lug'ati chig'atoyi va usmoniy" asarlarini ko'rsatish mumkin. Mazkur nashr tomlarini tayyorlagan va tahrir qilgan barcha olimlar bu lug'atlardan to'liq foydalandilar.

Alisher Navoiy asarlari o'n besh tomligini nashrga tayyorlashda navoiyshunos olimlar diqqati markazida turgan vazifalardan biri shoir tekstlarini eski o'zbek yozuvidan (arab grafikasidagi qo'lyozma manba'lardan) hozirgi joriy qilingan o'zbek grafikasiga o'tkazish, transliteratsiya qilish ham, shu bilan bog'liq bo'lgan imlo ham punktuatsiya masalalarini to'g'ri hal qilish edi.

Ma'lumki, eski o'zbek yozuvidagi adabiyotimizda ko'pincha unli tovushlar yozilmaydi. Buning ustiga, juda ko'p so'zlar vazn va qofiya talabiga muvofiq ikki uch xil yoziladi. Eski tekstlarda, biz tushunganimiz ma'noda, tinish belgilari qo'yilmaydi. Buning ustiga, hozirgacha nashr etilgan Navoiy tekstlari imlo jihatidan turlicha yozilib kelingan. O'n besh tomlik nashrda bunday hodisalarga imkon boricha chek qo'yildi. Hozirgacha turlicha yozilib kelingan bir qator so'zlar unifikatsiyalashtirilib yagona qoida ostiga olindi. Hozirgi o'zbek tili imlo qoidalariga muvofiq Navoiy tekstlariga tinish belgilari qo'yildi.

Buyuk o'zbek shoiri Alisher Navoiy yaratgan ulkan merosni boshqa xalqlar tiliga, birinchi navbatda rus tiliga tarjima qilib, hamma xalqlarni ham shoir asarlaridan bahramand etish hamisha sovet adabiyotshunosligi va yozuvchilar jamoatchiligining diqqat markazida turgan muhim vazifadir. Bu sohada anchagina ishlar ham qilingan. Shoirning bir necha asarlari to'liqligicha, ba'zan qisqartirilgan holda rus tili SSSR xalqlari tili va ajnabiy tillarga tarjima qilingan.

Genial o'zbek shoiri Alisher Navoiyning o'n besh tomlik asarlar to'plamining nashr etilishi faqat respublikamizninggina emas, balki butun Sovetlar Ittifoqining madaniy hayotida g'oyat buyuk voqeadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Сулаймонов Х. Навоий асарларининг манбалари ва нашри ҳақида // Алишер Навоий. "Ҳазойин ул-маоний" – "Ғаройиб ус-сиғар". Ўн беш томлик, биринчи том. – Тошкент: ЎзССР Давлат бадиий адабиёт нашриёти, 1963.
2. М.Горький. Собр.соч.в тридцати томах, Т.29.
3. Johannes Uri, Bibliothecae Bodlejanae Codicum Manuscriptorum Orientalium Catalogus, Pars I, Oxonli, 1787, инв. №283.
4. С.Л.Волин, Описание рукописей произведений Навои в ленинградских собраниях. Алишер Навои, Сб. Статей, Москва – Ленинград, изд. АН СССР, 1946, г.
5. Алишер Навоий, "Муҳокаматул-луғатайн". ЎзССР, Гослитиздат, Тошкент, 1940, бет 29-30. "Ҳазойинул маоний", Тошкент, ЎзССРФА нашриёти, 1959, том I, бет IX.
6. Хондамир, "Макоримул-ахлоқ", ЎзССРФА нашриёти Тошкент, 1948.
7. "Абушқа". Джигатайско-турецкий словарь, подготовил к печати В.В Вельяминов-Зернов, Санк- Петербург, 1968.

8. Олим Шарафутдинов, Алишер Навоий. Тошкент, Гостехиздат, 1939.
9. С.Л.Волин. Описание рукописей произведений Навои в Ленинградских собраниях. Сб. Алишер Навои. Москва, изд. АН СССР, 1946 г.
10. Е.Э. Бертельс, Навои, изд. АН СССР, М. – Л., 1948.
11. А.Саади. Творчество Навои как высший этап в развитии узбекской классической литературы (докторская диссертация, Ташкент, САГУ, 1940-1945гг.), том I.
12. Agahi Sirri Levend, Türkiye kitapliklarindaki Nevai yazmalari, Ankara, Türk tarih kurumu basimevi, 1958.
13. “Абушка” луғати.
14. Тошкент, ЎзССР ФА. Абу Райхон Беруний номидаги шарқшунослик институти, инв. № 914, 916, 3343.
15. С.Айний. “Алишер Навоий”, Душанба, Тоджик. Давл. нашр. 1948.
16. Ўзбек адабиёти, Тошкент, ЎзССР Давлат бадиий адабиёт нашриёти, 1960. Том II.
17. С.Айний. Улуғ ўзбек шоири, тўплам, Тошкент, ЎзФА нашриёти, 1948.
18. Е.Э.Бертельс. Навои, стр. 108.
19. Blochet, E. Catalogue de la collection de manuscript orientaux arabes, persans et turcs formee par M. Ch. Schefer, Paris, 1900.
20. Душанба, Тожикистон ССР Фанлар Академиясининг Шарқшунослик шуъбаси, № 956/I, 274/II; Тошкент ЎзССР ФА Шарқшунослик институти №1041/VI, 916, 3343/III, 914/II, 1962.
21. ابن يوسف شيرازى فهرست كتاب خانه مدرسه عالي سپهسالار ۱۵۰۰۲
22. Levend, Türkiye kitapliklarindaki Nevai yazmalari, Ankara, Türk tarih kurumu basimevi, 1958, Türk – Islam müzesi, № 1952; Nuruosmaniye Ktp., № 3850.
23. Алишер Навоий. “Муҳокаматул-луғатайн”, Гослитиздат, 1940. “Девони Фоний” хақида бошқа маълумотларни мазкур мақола авторининг тубандаги асарларидан топиш мумкин: “Текстологическое исследование лирики Алишер Навои”, докторская диссертация, Ташкент, 1961, том I, гл. 6 стр. 254-300. Фунд.. биб. АН ЎзССР; “Текстологическое исследование лирики Алишер Навои” автореферат докт. Диссертации. Ташкент, изд. АН ЎзССР, 1961. – С. 34-39, 53-67

МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕССАНСИ ЖУРНАЛИ

ЖИЛД 5, СОН 3

ЖУРНАЛ РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

ТОМ 5, НОМЕР 3

JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE

VOLUME 5, ISSUE 3

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,

Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадқиқот город Ташкент,

улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000